

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIK VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT FAKULTETI
BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI**

«TASDIQLAYMAN»

fakultet dekani, i.f.n.

X.X.KOMOLOV _____

«___» _____ 2016 y.

«HIMOYAGA RUXSAT ETAMAN»

kafedra mudiri, i.f.n.

S.Maxmudov _____

«___» _____ 2016 y.

**“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” TA'LIM
YO'NALISHINING BITIRUVCHISI**

MAXAMMADJONOV XUSHNUDBEKNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

*Mavzu: “Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyatida maxsulot
ishlab chiqarish va sotish hisobi.*

BMI rahbari i.f.n.:

X.Komolov

Bajaruvchi:

X.Maxammadjonov

ANDIJON – 2016

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI INSTITUTI
QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT FAKULTETI
BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”

Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasining
mudiri i.f.n.

S.Q.Maxmudov_____

«___» _____ 20__ yil.

Kunduzgi bo'lim buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishining

4-bosqich talabasi Maxammadjonov Xushnudbekning

bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun

TOPSHIRIQ

- 1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:** *institut rektorining 2015 yil 18 sentyabrdagi №240-ST (A) sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.*
- 2. BMIning mavzusi:** *“Rash-milk” mas'uliyati cheklangan jamiyatida maxsulot ishlab chiqarish va sotish hisobi.*
- 3. Bitiruv malakaviy ishni tugatish vaqti** *5 may 2016 yil.*
- 4. Bitiruv malakaviy ishning asosiy bo'limlari.** *BMI kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.*
- 5. Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun kerakli ma'lumotlar.** *«Buxgalteriya xisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining BXMSlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, I.A.Karimov asarlari, mavzuga oid adabiyotlar, hamda “Rash-milk” mas'uliyati cheklangan jamiyati ning 2014-2015 yillardagi yig'ma va yilik hisobotlari hamda mavzuga oid bo'lgan boshqa ma'lumotlari.*

6. Bitiruv malakaviy ishda foydalaniladigan jadvallar. *Bitiruv Malakaviy ishda mavzu moxiyatini yoritishga yordam beradigan 2 ta chizma, 4 ta jadval, 6 ta uzatma tuzilib, ulardan 5 tasi bevosita ximoya jarayonida foydalaniladi.*

Bitiruv malakaviy ishning asosiy kislari	Asosiy qismlarni bajarish vaqti	Raxbar unvoni, F. I.SH.	Imzo
<i>KIRISH</i>	<i>02.11.-07.11.15</i>	<i>I.f.n. X.Komolov</i>	
<i>I-BOB. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini vazifalari hamda uni tashkil qilish asoslari.</i>	<i>09.11.-17.12.15</i>	<i>I.f.n. X.Komolov</i>	
<i>1.1. Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini tashkil etishning maqsadi va ahamiyati.</i>	<i>09.11.-21.11.15</i>	<i>I.f.n. X.Komolov</i>	
<i>1.2. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobining nazariy va uslubiy asoslari..</i>	<i>23.11.-05.12.15</i>	<i>I.f.n. X.Komolov</i>	
<i>1.3. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini yuritishning o’ziga xos jihatlari.</i>	<i>07.12.-17.12.15</i>	<i>I.f.n. X.Komolov</i>	
<i>II-BOB. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobi.</i>	<i>20.12.15-31.01.16</i>	<i>I.f.n. X.Komolov</i>	
<i>2.1. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini turkumlashning xususiyatlari.</i>	<i>20.12.-31.12.15</i>	<i>I.f.n. X.Komolov</i>	
<i>2.2 Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda tayyor mahsulot va uni hisobda baholash.</i>	<i>02.01.-15.01.16</i>	<i>I.f.n. X.Komolov</i>	
<i>2.3. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotishning sintetik hamda analitik hisobi.</i>	<i>16.01.-31.01.16</i>	<i>I.f.n. X.Komolov</i>	
<i>III-BOB. “Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini alohida jixatlari.</i>	<i>01.02.-15.04.16</i>	<i>I.f.n. X.Komolov</i>	
<i>3.1. “Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mahsulotlarni biznes reja asosida ishlab chiqarishning xususiyatlari.</i>	<i>01.02.-15.02.16</i>	<i>I.f.n. X.Komolov</i>	
<i>3.2. “Rash-milk” MCHJda mahsulotlar sotish xajmini oshirish imkoniyatlari.</i>	<i>16.02.-29.02.16</i>	<i>I.f.n. X.Komolov</i>	

3.3. "Rash-milk" MCHJda mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnoma majburiyatlarini bajarish yo'llari.	01.04.-15.04.2016	I.f.n. X.Komolov	
Xulosa va takliflar.	16.04-26.04.16	I.f.n. X.Komolov	
Foydalanilgan adabiyotlar.	27.04-05.05.16	I.f.n. X.Komolov	

Topshiriq berilgan vaqti: 18 setyabr 2015 yil

Rahbar,i.f.n.:

X.Komolov

Bitiruvchi:

X.Maxammadjonov

M u n d a r i j a

<i>Kirish</i>	<i>1-4</i>
<i>I-BOB. MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATLARDA MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISH VA SOTISH HISOBINI VAZIFALARI HAMDA UNI TASHKIL QILISH ASOSLARI.....</i>	<i>5-20</i>
<i>1.1. Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini tashkil etishning maqsadi va ahamiyati.....</i>	<i>5-8</i>
<i>1.2. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobining nazariy va uslubiy asoslari.....</i>	<i>9-13</i>
<i>1.3. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini yuritishning o’ziga xos jihatlari.....</i>	<i>14-20</i>
<i>II-BOB. MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATLARDA MAXSULOT ISHLAB CHIQRARISH VA SOTISH HISOB.....</i>	<i>21-43</i>
<i>2.1. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini turkumlashning xususiyatlari.</i>	<i>21-29</i>
<i>2.2 Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda tayyor mahsulot va uni hisobda baholash.....</i>	<i>30-33</i>
<i>2.3. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotishning sintetik hamda analitik hisobi.....</i>	<i>34-43</i>
<i>III-BOB. RASH-MILK” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATIDA MAXSULOT ISHLAB CHIQRARISH VA SOTISH HISOBINI ALOHIDA JIXATLARI.</i>	<i>44-58</i>
<i>3.1. “Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mahsulotlarni biznes reja asosida ishlab chiqarishning xususiyatlari.</i>	<i>44-49</i>
<i>3.2. “Rash-milk” MCHJda mahsulotlar sotish xajmini oshirish imkoniyatlari.....</i>	<i>50-55</i>
<i>3.3. “Rash-milk” MCHJda mahsulotlarni sotish bo’yicha shartnoma majburiyatlarini bajarish yo’llari.....</i>	<i>56-58</i>
<i>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</i>	<i>59-61</i>
<i>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....</i>	

MAVZU: “RASH-MILK” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATIDA MAXSULOT ISHLAB CHIQUARISH VA SOTISH HISOBI.

KIRISH

1-BOB. MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATLARDAMAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH VA SOTISH HISOBINI VAZIFALARI HAMDA UNI TASHKIL QILISH ASOSLARI.

- 1.1. Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini tashkil etishning maqsadi va ahamiyati.
- 1.2. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobining nazariy va uslubiy asoslari.
- 1.3. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini yuritishning o’ziga xos jihatlari.

2-BOB. MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATLARDAMAXSULOT ISHLAB CHIQUARISH VA SOTISH HISOBI.

- 2.1. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini turkumlashning xususiyatlari.
- 2.2. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda tayyor mahsulot va uni hisobda baholash.
- 2.3. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotishning sintetik hamda analitik hisobi.

3-BOB. “RASH-MILK” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATIDAMAXSULOT ISHLAB CHIQUARISH VA SOTISH HISOBINI ALOHIDA JIXATLARI.

- 3.1. “Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mahsulotlarni biznes reja asosida ishlab chiqarishning xususiyatlari.
- 3.2. “Rash-milk” MCHJda mahsulotlar sotish xajmini oshirish imkoniyatlari.
- 3.3. “Rash-milk” MCHJda mahsulotlarni sotish bo’yicha shartnoma

majburiyatlarini bajarish yo'llari.

Xulosa va takliflar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Respublikamizda bosqichma bosqich amalga oshirilaётgan islohotlar iqtisodiy taraqqiyyotga erishishda muhim omil bo'lmoqda. Keyingi yillarda yurti mizda barcha sohalarda o'sish sur'atlari barqaror saqlanib kelaётgani, qator tarmoqlarda yuqori natijalar ko'lga kiritilaётgani buning amaliy tasdig'idir. Tabiiyki, ana shu muvaffaqiyatlarda ishlab chiqarish korxonalarining ham ulushi salmoqli. Bozor iqtisodiyeti sharoitida korxona ishlab chiqarishi ko'zda tutilgan mahsulotlar hajmi ist'emolchilarning ko'lami hamda korxona ichki imkoniyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan boyliklarning chegaralanganligi mo'l - ko'l tovarlar ishlab chiqarilishini ham chegaralaydi. Bunday sharoitda korxona o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini to'g'ri belgilay olish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan buxgalterlar tomonidan beriladigan axborotlarga bog'liqdir. Chunki, buxgalterlar tomonidan xo'jalik sub'ekti xaqidagi mulkiy va moliyaviy xolat bo'yicha taqdim etiladigan yakuniy xulosa hozirgi kun talabi bo'yicha mukammal bo'lishi uchun dastlabki hujjatlarga asoslangan hamda ishonchli bo'lishi davr talabidir.

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy isloxlarni debochasi sifatida buxgalteriya hisobini rivojlantirish hamda uni jaxon talablari darajasiga ko'tarilishini ta'minlash maksadida xukumatimiz tomonidan juda ko'plab amaliy ishlar kilinmokda. Buning yorikin misoli respublikamizda qabul qilingan

buxgalteriya hisobining huquqiy asosini ta'minlab beruvchi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun hamda milliy standartlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilinishidir. YUqoridagilarni inobatga olib korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq muomalalarni hisobi va tahlilini tashkil etish bugungi kunning dolzarb mavzusi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini o'rganish va shular asosida ilmiy va asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdir. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

Bitiruv malakaviy ishining oldiga ko'yilgan vazifalar quyidagilar:

- korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini tashkil etishning maqsadi va ahamiyati ko'rib chiqish;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobining nazariy va uslubiy asoslarini o'rganib chiqish;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini turkumlanishini kursatib o'tish;
- tayyor mahsulot va uni hisobda baholanishini ko'rib chiqish;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotishning sintetik hamda analitik hisobini yoritish;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotishning sintetik hamda analitik hisobini o'rganib chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, kodekslar, sohaga oid qonunlar, Prezident farmonlari, iqtisodiyotga oid ilmiy asarlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlari, nizomlar, ko'rsatmalar, shuningdek yurtimiz va xorijlik iqtisodchi olimlarining soxaga oid ilmiy ishlari ishning nazariy va uslubiy asoslaridir.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti bo'lib SHaxrixon tumanida joylashgan joylashgan "Rash-milk" mas'uliyati cheklangan jamiyati hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish kismida mavzuning dolzarbligi, ishning nazariy va uslubiy asosi amaliyot ob'ekti, ishning tarkibi va tuzilishi yoritilgan.

Birinchi “Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini vazifalari hamda uni tashkil qilish asoslari” bobida xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini tashkil etishning maqsadi va ahamiyati, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobining nazariy va uslubiy asoslari, mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini yuritishning o’ziga xos jihatlari o’rganilgan.

Ikkinchi “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobi” bobida mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini turkumlashning xususiyatlari, tayyor mahsulot va uni hisobda baholash, mahsulot ishlab chiqarish va sotishning sintetik hamda analitik hisobi kabi masalalar ko’rib chiqilgan.

Uchinchi “Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini alohida jixatlari” bobida “Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mahsulotlarni biznes reja asosida ishlab chiqarishning xususiyatlari, mahsulotlar sotish xajmini oshirish imkoniyatlari, mahsulotlarni sotish bo’yicha shartnoma majburiyatlarini bajarish yo’llari ko’rsatib o’tilgan.

Bitiruv malakaviy ishning yakunida mavzu bo’yicha xulosalar va takliflar keltirilgan.

1-BOB. MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATLARDA MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH VA SOTISH HISOBINI VAZIFALARI HAMDA UNI TASHKIL QILISH ASOSLARI.

1.1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini tashkil etishning maqsadi va ahamiyati.

Mamlakatimizda yaratilgan iqtisodiy erkinliklar tadbirkorlarni amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan barcha faoliyatlar bilan shug'ullanishga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Foyda olishni maqsad qilib olgan xususiy va boshqa mulkchilik shakllari sub'ektlari albatta qaysidir ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko'rsatish yoki boshqa turdagi faoliyatlarning biri bilan shug'ullanadilar. Faoliyat yuritayotgan korxonalar sanab o'tilgan faoliyat turlarining qaysi biri bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar albatta davlat bilan soliqlar yuzasidan, haridor va buyurtmachilar bilan yetkazib berilgan mahsulotlar yuzasidan, ishchi xodimlar bilan ish haqi yuzasidan hisob-kitoblarni olib borishni taqazo etadi. Bu esa o'z navbatida har qanday korxonada hisobni tashkil etish va to'g'ri yuritish zaruriyatini tug'diradi.

O'zbekistonda hozirgi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning aksariyat qismi xalq iste'moli mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanmoqda. Ishlab chiqarish korxonalarida yuzaga keladigan xo'jalik muomalalarini to'g'ri aks ettirish va ularning hisobini tashkil etish korxonaning kelgusi istiqbolini belgilash imkoniyatini beradi. Ishlab chiqarish korxonalari faoliyati juda keng xo'jalik jarayonini o'zida qamrab oladi ya'ni, ishlab chiqarishni uzluksizligini ta'minlash uchun ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini bir

vaqtning o'zida amalga oshiradilar. Bu esa korxonaning hisob jarayonini yanada murakkablashtiradi.

Buxgalteriya hisobida barcha xo'jalik muomalalari to'g'ri va o'z vaqtida aks ettirilishi uchun xar bir alohida jarayonlar bo'yicha hisobning maqsad va vazifalari "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasida belgilab berilgan. Qonunga binoan buxgalteriya hisobining maqsadi foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axborotlari bilan ta'minlashdir. Ko'rsatilgan maqsadga erishish uchun buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagi iborat:

- mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq haqiqiy xarajatlarni o'z vaqtida, to'liq hisobda aks ettirish;
- tayyor mahsulot xarajati bilan bog'liq hamma xo'jalik muomalalarni hisobda o'z vaqtida va to'g'ri aks ettirish, omborlarda mahsulotni belgilangan zahira me'rlariga rioya qilish hamda saqlanishi ustidan nazorat olib borish;
- buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va xarakati, mulkiy xuquqlar va majburiyatlarning holati to'g'risida to'liq hamda anik ma'lumotlarni shakllantirish;
- samarali boshkarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish;
- moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni anik tuzishdan iboratdir.

Buxgalteriya hisobining umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib alohida hisob ob'ektlari bo'yicha hisobning vazifalari belgilab olinadi. Bu esa korxonani xo'jalik jarayonining tashkiliy va texnologik tuzilishiga bog'liqdir.

Ushbu vazifalarni vaqtida bajarilishi korxonaning bir maromda ishlashiga, ombor xo'jaligi va mahsulot sotishni to'g'ri tashkil qilishga, xo'jalik muomalalarning hujjatlarda o'z vaqtida rasmiylashtirilishiga bog'liqdir.

Korxonalarda ishlab chiqarish jarayoni hisobi mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan barcha moddiy va mexnat sarflarini hisoblab, mahsulot birligining tannarxini aniqlashga xizmat qiladi. Bu bilan asosan boshqaruv hisobi

shug'ullanadi. Boshqaruv hisobining eng asosiy qismi hisoblangan ishlab chiqarish xarajatlari hisobining yuritilishiga e'tibor qaratiladi va bunga asos bo'lib quyidagi qonunchilikka oid me'yoriy hujjatlar hisoblanadi:

1. Qonun xujjatlari;
2. Asosiy qoidalar majmui - ya'ni buxgalteriya hisobi milliy standartlari;
3. Mamlakat bo'yicha ishlab chiqiladigan, buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.
4. Hisob siyosatini belgilash va hujjatlar aylanmasini tashkil etish bo'yicha korxonada chiqarilgan ichki ish hujjatlari.

Qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa tegishli qonun xujjatlarini kiritishimiz mumkin.

Ikkinchi guruhdagi me'yoriy hujjatlarga O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobining Milliy Andozalari kiritiladi. Jumladan mahsulot ishlab chiqarishni tartibga soluvchi "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli 4-son BHMAGA muvofiq tayyor mahsulot xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda bo'lgan aktivlar hisoblanadi va ular xo'jalik yurituvchi sub'ektning kundalik faoliyatida sotish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulot, tovarlar sifatida korxonaning tovar-moddiy zaxiralari tarkibiga kiradi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda buxgalteriya hisobi sohasida islohotlarni amalga oshirilishi eng asosiy masalalar bo'yicha o'zgarishlarga olib keldi. SHulardan biri, avval 1995 yilda keyinchalik 1999 yilda "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning qabul qilinishi mamlakatimiz buxgalteriya hisobida tubdan o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'ldi. Ushbu Nizom xarajatlarning mohiyati, korxonaning hisobot davridagi foydasi bilan bog'likligidan kelib chiqib taqsimlashni belgilab berdi.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish mazkur «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi, hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asoslanadi.

Bu Nizom buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yicha amaldagi qonunchilikni inobatga olgan holda xo'jalik sub'ektlari bo'lgan yuridik va jismoniy shahslar O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga qo'shiladigan xarajatlarni bir xil qilish maqsadida ishlab chiqilgan.

Me'yoriy hujjatlarni to'rtinchi guruhiga asosan korxonaning hisob siyosatini belgilash va hujjatlar aylanmasini tashkil etish bo'yicha korxonada ishlab chiqarilgan ichki ish hujjatlari kiradi. Bunda korxonaning hisob ob'ektlari bo'yicha yuqorida aytib o'tilgan me'yoriy hujjatlarga asosan o'zining mustaqil hisob tizimini ishlab chiqadi, ya'ni, ishlab chiqarish xarajatlarini turkumlash va ularni hisobda aks ettirish tartibini qat'iy belgilab oladi.

1.2. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobining nazariy va uslubiy asoslari.

O'zbekiston respublikasida faoliyat yuritayotgan yetakchi tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash halqaro sifat standartlariga o'tish bo'yicha turli muddatlarga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqilgan va izchil ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishda g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Korxona ishlab chiqarishi ko'zda tutgan mahsulotlar hajmi iste'molchilarning ko'lamini hamda korxona ichki imkoniyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklarning chegaralanganligi mo'l-ko'l tovarlar yaratishni ham chegaralaydi. Bunday sharoitda korxona o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini to'g'ri belgilay olishi muhim ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, hozirgi sharoitda korxonalar tomonidan yaratilayotgan mahsulotlar asosan bozorda sotiladi. Ushbu bozorlardagi mahsulotlarni mo'l-ko'lligi, raqobatchilarning imkoniyatlari va iste'molchilarning ixtisoslik tovarlarga bo'lgan talablarining o'zgarib turishi ishlab chiqarish hajmini to'g'ri va oqilona rejalashtirishni talab etadi va ushbu rejalarni mustahkamlash uchun har bir korxona ishlab chiqaradigan mahsulotlarining xaridorlari bilan joriy yil uchun shartnomaviy majburiyatlar tuzadilar. Tuzilayotgan shartnomalarda albatta yetkazib berilishi

lozim bo'lgan tovarlar turi, miqdori, sifati, narxi va muddatlari tomonlar o'rtasida kelishiladi va tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi Qonunining 20-moddasida quyidagilar qayd etilgan: ***"Korxona o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va xom-ashyo resurslariga, materiallarning mavjudligini hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga, bajarilayotgan ishga, ko'rsatilayotgan xizmatga bo'lgan talablarini hisobga olib taraqqiyot istiqbollarini belgilaydi. Korxona davlat ehtiyojlari uchun shartnoma asosida ishlar bajaradi, mahsulot sotadi va xizmat ko'rsatadi".***¹

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, korxonalarni modernizatsiya qilish, ulurni texnik va texnologik yangilashga doir amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiqdir.

"2015-yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o'zlashtirildi. Bu 2014-yilga nisbatan 9,5 foiz ko'p demakdir. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalaridir.

Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. Bu esa 2015-yilda umumiy qiymati 7 milliard 400 million dollar bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish obekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi."² O'zbekistonda hozirgi kunda korxonalarning aksariyat qismi xalq iste'moli mollari va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda sotish bilan shug'ulanmoqda. Ishlab chiqarish korxonalarida yuzaga keladigan

¹ O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi Qonunining 20-moddasi

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 16.01.2016 yil.

xo'jalik muomalalarini to'g'ri aks ettirish va ularning hisobini tashkil etish korxonaning kelgusi istiqbolini belgilash imkoniyatini beradi. Ishlab chiqarish korxonalari faoliyati juda keng xo'jalik jarayonini o'zida qamrab oladi ya'ni, ishlab chiqarishni uzluksizligini ta'minlash uchun ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini bir vaqtning o'zida amalga oshiradilar. Bu esa korxonaning hisob jarayonini yanada murakkablashtiradi.

Buxgalteriya hisobida barcha xo'jalik muomalalari to'g'ri va o'z vaqtida aks ettirilishi uchun har bir alohida jarayonlar bo'yicha hisobning maqsad va vazifalari "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasida belgilab berilgan. Qonunga binoan buxgalteriya hisobining maqsadi foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axborotlari bilan ta'minlashdir. Ko'rsatilgan maqsadga erishish uchun buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagi iborat:

- mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq haqiqiy xarajatlarni o'z vaqtida, to'liq hisobda aks ettirish;
- tayyor mahsulot xarajati bilan bog'liq hamma xo'jalik muomalalarni hisobda o'z vaqtida va to'g'ri aks ettirish, omborlarda mahsulotni belgilangan zahira me'yorlariga rioya qilish hamda saqlanishi ustidan nazorat olib borish;
- buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va xarakati, mulkiy xuquqlar va majburiyatlarning holati to'g'risida to'liq hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirish;
- samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish;
- moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni aniq tuzishdan iboratdir³.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda buxgalteriya hisobi sohasida islohotlarni amalga oshirilishi eng asosiy masalalar bo'yicha o'zgarishlarga olib

³ O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni T. 1996 yil.

keldi. SHulardan biri, avval 1995 yilda keyinchalik 1999 yilda "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning qabul qilinishi mamlakatimiz buxgalteriya hisobida tubdan o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'ldi. Ushbu Nizom xarajatlarning mohiyati, korxonaning hisobot davridagi foydasi bilan bog'likligidan kelib chiqib taqsimlashni belgilab berdi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini tashkil etish mazkur «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi, hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asoslanadi.

Me'yoriy hujjatlarni to'rtinchi guruhiga asosan korxonaning hisob siyosatini belgilash va hujjatlar aylanmasini tashkil etish bo'yicha korxonada ishlab chiqarilgan ichki ish hujjatlari kiradi. Bunda korxonaning hisob obektlari bo'yicha yuqorida aytib o'tilgan me'yoriy hujjatlarga asosan o'zining mustaqil hisob tizimini ishlab chiqadi, ya'ni, ishlab chiqarish xarajatlarini turkumlash va ularni hisobda aks ettirish tartibini qat'iy belgilab oladi.

Xozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarining ishlab chiqargan mahsulotlar hajmi miqdoriy, shartli – miqdoriy, mehnat va qiymat o'lchovlarida o'rganilishi mumkin. Bu o'lchovlar tarkibida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini o'rganishda qiymatda hisoblangan ko'rsatkichlarni tahlil etish muhim o'rin egallaydi. YA'ni, korxona bo'yicha barcha turdagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi qiymat o'lchovida umumlashadi. Boshqaruv tahlili uchun sanoat korxonalari ishlab chiqargan mahsulot hajmini o'rganishda kuyidagi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar o'rganiladi:

- yalpi mahsulot;
- tovar mahsuloti;
- sotilgan mahsulot.

YAlpi mahsulot – bu korxonaning ma'lum bir davrda (kun, oy, chorak, yil) ishlab chiqargan mahsuloti, ko'rsatgan xizmat va bajargan ishlarining amaldagi va solishtirma bahoda o'lchangan hajmiga aytiladi. Bunda uning tarkibiga ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar,

tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlari, korxonaning o'z kapital remonti uchun sarflangan yarim fabrikatlar qiymati, buyurtmachilarning xom-ashyosidan tayyorlangan mahsulotlar qiymati ham qo'shilgan holda aks etadi. Ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi korxonaning quvvati, imkoniyati va ixtisoslashuvini o'rganishga hamda tahlil o'tkazishga imkoniyat yaratadi.

Tovar mahsuloti – bu iste'molchilarga yetkazib berish uchun mo'ljallangan mahsulotlar bo'lib, yalpi mahsulotdan shu jihatlari bilan farq qiladiki, uning tarkibiga tugallanmagan ishlab chiqarish va korxona ichki iste'moli (oboroti) uchun foydalanilgan mahsulotlar hamda buyurtmachilarning xom-ashesidan tayyorlangan mahsulotlar kiritilmaydi.

Sotilgan mahsulot–iste'molchilarga jo'natilgan, yoki xaridorlardan puli kelib tushgan mahsulotlar qiymatiga aytiladi. Sotilgan mahsulotlar hajmi solishtirma, biznes rejadagi va amaldagi baholarda hisoblanishi mumkin. Bu ko'rsatkichga qarab ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlik, korxonaning mahsulotlarini sotish hajmini ko'paytirish bo'yicha imkoniyatlari bor yoki yo'qligini tahlil qilishga asos bo'ladi.

Korxonalarning mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishda muhim o'rinni miqdoriy ko'rsatkichlarni o'rganish egallaydi. Bunda mahsulot turlari bo'yicha dona, metr, tonna va hakoza birliklarda ishlab chiqarish sur'ati, dinamikasi va o'zgarish darajalarini aniqlash borasidagi tahlilning imkoniyatlari yaratiladi.

SHuningdek, ko'p turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarning faoliyatini tahlil qilishda sarflangan mehnat miqdoriga qarab ham ma'lumotlar o'rganiladi, ya'ni har bir ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun sarflangan kishi-soati yoki kishi-kuni, bir kishi kuni yoki soatida yaratilgan mahsulotlarning miqdori kabi shartli – miqdoriy ma'lumotlarni o'rganib ham ishlab chiqarish faoliyatiga baho beriladi.

Sanoat korxonalarining mahsulotlar ishlab chiqarish darajasini hisobga olishda muhim o'rinni biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, qiymat o'lchovida hisoblangan umumlashgan ma'lumotlarni o'rganish egallaydi. YA'ni, ishlab

chiqarilgan yalpi va tovar mahsuloti, sotilgan mahsulotlar qiymatini bir necha yillar ma'lumotlariga asoslanib o'rganish lozim.

1.3. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini yuritishning o'ziga xos jihatlari.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarish alohida ahamiyatga egadir. SHuning uchun Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda avvalo mahsulot tannarxi va uni hosil qiluvchi xarajatlar o'rganilishi kerak. Mahsulotlarning tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlariga ajratiladi:

- Ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- Asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizasiyasi;
- Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar⁴.

Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari elementi tarkibiga ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulotni tayyorlash (ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish)da zarur tarkibiy qism hisoblangan, chetdan sotib olingan xom-ashyo va materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar, tashqi yuridik va jismoniy shaxslardan ko'rsatilgan ish va xizmatlar, energiya barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga qilingan xarajatlar, moddiy boyliklarning tabiiy yo'qolish normalari

⁴ "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom 1999 yil.

doirasida va ulardan ortiqcha yo'qotilishi, yaroqsizlanishi hamda nizomda belgilangan boshqa moddiy xarajatlar kiradi.

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari tarkibiga xo'jalik yurituvchi subektda qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq hisoblangan ish haqi, rag'batlantirish tusidagi turli to'lovlar, kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar, kompensatsiya tusidagi to'lovlar, qo'shimcha ishlangan ish vaqti uchun to'lovlar (bayram, dam olish kunlari, tunggi vaqtda), ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar, har yilgi va qo'shimcha ta'tillarga to'langan to'lovlar va nizomda ko'rsatilgan boshqa xarajatlar kiradi.

Ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug'urta ajratmalari elementiga budjetdan tashqari majburiy fondlarga qonunchilik bilan belgilangan me'yorlarga muvofiq ajratiladigan to'lovlar kiradi. Masalan, mehnat haqi fondidan sug'urta fondiga majburiy ajratmalar, nodavlat pensiya jamg'armalariga, ixtiyoriy tibbiy sug'urta va sug'urtaning boshqa turlariga ajratmalar, bandlik xizmatiga ajratmalar shular jumlasidandir.

Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar eskirishi bo'yicha xarajatlarga asosiy fondlarning dastlabki qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari, lizing bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar, qonun hujjatariga muvofiq amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ajratmalari, shuningdek, nomoddiy aktivlarni har oyda xo'jalik yurituvchi subekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan kelib chiqib hisoblanadigan eskirishi kabi xarajatlar kiradi.

Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlarga ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari, ishlab chiqarish hodimlarini xizmat safarlariga yuborish xarajatlari, ishlab chiqarish ishchilarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sug'urta qilish xarajatlari, brak tufayli kelib tushadigan yo'qotishlar, kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari, mahsulot (xizmatlar)ni majburiy

sertifikatsiya qilish xarajatlari, ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qolishi munosabati bilan to'lanadigan nafaqalar, umumiy foydalaniladigan yo'lovchilar transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda hodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bog'liq xarajatlar, shuningdek, nizomga muvofiq boshqa xarajatlar kiradi.

Mahsulot (ish, xizmat) lar yaratilgandan so'ng odatda malum bir qiymatda baholanadi va sotiladi.

Tayyor mahsulot (ish va hizmat) larni ishlab chiqarish hamda sotish qiymatini belgilashda "Tovar moddiy zaxiralar" nomli 4-son BHMS dan foydalaniladi. 4-sonli BHMS ning 7-bandiga binoan tayyor mahsulotlar eng kam bahoda baholanishi kerak:

- tannarxda;
- sof sotilish qiymatida⁵.

Hisobot davri ohirida mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarhini aniqlash mumkin. Lekin mahsulotning ishlab chiqarilishi har kuni sodir bo'ladi, shu sababdan joriy hisobda mahsulotni shartli bahoda baholash kerak. Tayyor mahsulotning operativ hisobi ishlab chiqarish reja tannarhida yoki shartnoma bahosida yohud chakana bahoda yuritiladi.

Oy oxirida tafovut (chetga chiqish) aniqlanadi va hisob narxi haqiqiy tannarxga qadar yetkaziladi. Odatda mahsulotning hisobi - natura, shartli-natura va qiymat ko'rsatkichlarida yuritiladi.

Tayyor mahsulot buxgalteriya hisobida mahsulotning amaldagi ishlab chiqarish tannarxi, reja ishlab chiqarish tannarxi, sotishdagi ulgurji narxlar, erkin sotish narxlari va tariflari, erkin bozor narxlarida baholanishi mumkin. SHuni ham aytib o'tish kerakki, tayyor mahsulot korxonaning aylanma mablag'lari tarkibiga kiradi va shu boisdan amaldagi buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risidagi milliy standartlarga (BHMS) binoan, haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha balansda aks ettirilishi kerak⁶.

⁵ Buxgalteriya hisobining milliy standartlari to'plami O'zBAMA, Toshkent – 2012 yil.

⁶ Buxgalteriya hisobining milliy standartlari to'plami O'zBAMA, Toshkent – 2012 yil.

Xo'jalik yurituvchi subektning ishlab chiqarish tsehida tayyorlangan va malum bir qiymatda baholangan mahsulotlar istemolchilarga sotilgunga qadar saqlab turish maqsadida tayyor mahsulotlar omboriga topshiriladi. Tayyor mahsulotni omborga topshirish qabul qilish topshirish yuk xatlari bilan rasmiylashtiriladi, ularda quyidagi ko'rsatkichlar urin oladi: mahsulotni qabul qilgan omborning raqami (kodi), mahsulotning nomi, uning miqdori, o'lchov birligi, narxi va summasi. Bajarilgan ishlar va xizmatlar qabul qilish topshirish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Omborda tayyor mahsulot ombor hisob varaqa (kartochka)larida tabiiy ko'rinishda, materiallar hisobiga o'xshab hisobga olinadi. Ularda har bir kirim va chiqim hujjati bo'yicha ma'lumotlar yoziladi; har bir yozuvdan keyin qoldiq chiqariladi. Topshirish yuk xatlari asosida mahsulot ishlab chiqarish qaydnomalari yuritiladi.⁷

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarishdan asosiy maqsad korxonada daromad olinishi nuqtai nazaridan mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga obektiv va sub'ektiv omillar ta'sirini atroflicha o'rganish asosida ular bo'yicha rejani bajarish, mahsulot tuzilmasini, ishlab chiqarish maromiyligini, mahsulotlar sifatini yaxshilash imkoniyatlarini qidirib topish va amaliyotga tadbqiq qilish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqishdir.

Ma'lumki korxonada ishlab chiqarilgan mahsulot tarnarxini aniqlash va uni baholash muhim jarayon hisoblanadi. Bu jarayonlar korxonalarda uzliksiz ravishda davom etib mahsulotlarni tannarxi va bahosi aniqlab boriladi. Buxgalteriya hisobida mahsulotni baholashdan asosiy maqsad xarajatlarni boshqarish, ishlab chiqarishni rejalashtirish, ishlab chiqarish xarajatlari ustidan nazorat qilish, boshqaruvchini axborot bilan taminlash, korxonaning kelajakdagi istiqboli uchun kerakli qarorlar qabul qilishdan

⁷ O.Bobojonov, X.Axmedov, A.Turkmanov. Moliyaviy hisob. Darslik. – T.: TDIU, 2011. ____.

iborat. Mana shu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

1) Mahsulot turlari va tarkibini aniqlab olish. Buning uchun korxonani qanday turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishini va ularni tarkibiy tuzilishini aniqlab olish lozim.

2) Tannarxni aniqlash usulini belgilab olish. Qanday turdagi mahsulot ishlab chiqarilishi belgilab olingandan so'ng uni tayyorlanish jarayoni, yani oddiy yoki murakkabligi qarab tannarxni aniqlash usuli belgilanadi. Agarda tayyorlanadigan mahsulotimiz kamyob turdagi yoki yuqori qiymatdagi mahsulot bo'ladigan bo'lsa ular buyurtma asosida qabul qilinadi, bunda biz buyurtmali usuldan foydalanamiz yoki mahsulotimizni tayyorlanish jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshiriladigan bo'lsa jarayonli usuldan foydalanishimiz mumkin va h.k.

3) Korxona faoliyati bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z vaqtida va to'laligicha hisobga olish. Bunda korxona faoliyati bilan bog'liq barcha xarajatlarni ular ishlab chiqarish xarajatlari, mamuriy xarajatlar, favqulotda va boshqa xarajatlar bo'ladimi barchasi o'z vaqtida va to'laligicha belgilangan moddalar bo'yicha hisobga olish ko'zda tutilgan.

4) Xarajatlar haqidagi ma'lumotlarni alohida hisob varaqalarda hamda hisobot shakllarida to'g'ri aks ettirish va soliqlarni hisoblash uchun yetarli darajadagi ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash. Bunda alohida hisob varaqlarda aks ettirilgan xarajatlar ularga tegishli bo'lgan hisobotlarda aks ettirilishi lozim. Misol uchun moliyaviy va favqulotda xarajatlar "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" (2 shakl) da aks ettirilishi lozim.

YUqoridagi vazifalarni bajarish uchun asosiy manbalar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1) Xo'jalik sub'ektlarining biznes reja ma'lumotlari. Biznes-reja malumotlari korxonani rivojlanishi uchun talab etiladigan moliyaviy mablag'larni va kutilayotgan daromad darajasini ko'rsatadi. Biznes - rejani ishlab chiqish va uni

rivojlantirish muhim, chunki biron-bir investor yoki qarz beruvchi sizning biznesingizga qo'shilishdan avval biznes-rejangiz bilan qiziqadi

2) “Tayyor mahsulotlar harakati” to'g'risidagi 16-sonli qaydnoma. Bu qaydnoma to'rtta bo'limdan iborat bo'lib, 1-bo'lim “Tayyor mahsulotning pul shaklidagi harakati” deb, unda mahsulotning hisobot oyi boshlanishiga qoldig'i, omborga qabul qilingani, haridorlarga jo'natilgani va hisobot oyi oxiriga qoldig'i, hisobda qabul qilingan baho hamda haqiqiy tannarxda ko'rsailadi. 2-bo'lim “Jo'natilgan va sotilgan mahsulotlar” deb nomlanib, unda jo'natilgan mahsulotlarning analitik hisobi haridor korxonalar nomiga yozilgan har bir to'lov talabnomasi bo'yicha alohida yuritiladi. 3-bo'lim “To'langan va to'lanmagan schotlar haqida umumiy ma'lumotlar” deb nomlanib, unda jo'natilgan va sotilgan mahsulotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar ko'rsatiladi. 4-bo'limda ham boshqa korxonalar bilan hisob-kitob ma'lumotlari keltiriladi.

3) “Buxgalteriya balansi” (1 shakl) ma'lumotlari. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mablag'lari doimo ishlab chiqarish jarayonida harakatda bo'lib, davrlar bo'yicha miqdor va qiymat jihatdan o'zgarib boradi. Ularning xo'jalik faoliyati ustidan rahbarlik qilish va boshqarish uchun sub'ekt qanday mablag'larga ega, ularning tarkibi va qaerda joylashganligi hamda bu mablag'lar qanday manbalardan tashkil topganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Xo'jalik mablag'larining tarkibi, joylanishi, harakati va ularning kelib chiqish manbalaridagi o'zgarishlarni bir – biriga solishtirib, ma'lum bir sanaga pul o'lchovida umumlashtirib aks ettirish buxgalteriya balansi yordamida amalga oshiriladi.

Buxgalteriya balansida sub'ektning xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari umumlashtirilib, odatda, kunning oxiriga (banklarda) yoki hisobot oyidan keyingi oyning birinchi kuniga pul o'lchovida tuziladi.

4) “Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot” (2- shakl) ma'lumotlar. Ushbu hisobotda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning asosiy va moliyaviy faoliyati natijasida olgan foyda yoki ko'rgan zararlarining miqdori tegishli moddalar bo'yicha yoritiladi.

5) Buxgalteriya hisobining tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olib boruvchi schot ma'lumotlari va boshqa turdagi qo'shimcha ma'lumotlar. 21-sonli BHMS ga muvofiq tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik hisobi 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schotida olib boriladi. Ushbu schot aktiv schot bo'lib, ko'payishi va qoldig'i debet tomonida, kamayishi kredit tomonida, qoldig'i ma'lum bir sanaga tugallanmagan ishlab chiqarishning puldagi ifodasida aks ettiriladi. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayoni bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq xarajatlar kiradi. Masalan, ishlab chiqarish jamiyatidagi material, ishlab chiqarish harakteridagi mehnat ga haq to'lash, ijtimoiy sug'urtaga ajratma xarajatlari, ishlab chiqarish harakteridagi asosiy fondlar hamda nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Tayyor mahsulotlarni hisobga olish uchun esa, 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schotidan foydalaniladi. 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schotida tayyor mahsulotlar haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha hisobga olinadi. Qishloq xo'jaligi korxonalari o'simlikchilik mahsulotlari, chorvachilik va qayta ishlangan mahsulotlarining harakatini biznes-rejadan kelib chiqib, yil davomida prognoz tannarxi bo'yicha hisobga oladi. Yil oxirida tayyor mahsulotning haqiqiy va prognoz tannarxi o'rtasida aniqlangan farq mahsulotlar schotiga hisobot yili oxiridagi keltirilgan mahsulotlarning qoldig'iga taalluqli bo'lgan ulushlarda o'tkaziladi.

Sotish uchun tayyorlangan (olingan) tayyor mahsulotlar, shu jumladan, qisman korxonaning o'z ehtiyojlari uchun mo'ljallangan mahsulotlarning kirim qilinishi 2810 "Ombordagi tayyor mahsulot" schotining debetida xarajatlarni hisobga oluvchi schotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Umuman olganda, hozirgi kunda tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va sotish hisobi bo'yicha uslubiy hamda nazariy muammolar to'la hal etilgan.

2-BOB. MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATLARDA MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH VA SOTISH HISOBI.

2.1. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini turkumlashning xususiyatlari.

Mamlakatimiz ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning joriy va istiqboldagi chora tadbirlarni belgilashda jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta’sirini har tomonlama hisobga olishimiz, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jaraenlar ta’sir nuqtai nazaridan shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimiz taqozo etiladi. Bu boradagi chora tadbirlar Prezidentimiz I. Karimovning “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari ” nomli asarlarida keng va batafsil baen qilib berilgan. Prezidentimiz o’z asarlarida Inqirozga qarshi choralar dasturining konkret bo’limlari belgilangan kompleks chora tadbirlar haqida to’xtalib o’tib, mazkur chora tadbirlar orqali hal etilishi lozim bo’lgan asosiy vazifalarni belgilab berdilar.Ulardan biri ka’tiy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag’batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishdir.

Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari deb, mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog’liq xarajatlarga aytiladi. Ularga xom-ashyo, material, yoqilg’i, amortizatsiya ajratmasi, ishchi xizmatchilarga ish haqi va mahsulot ishlab chiqarish bilan bog’liq boshqa xarajatlar kiradi.

Agar bir xil mahsulot ishlab chiqarish bilan bog’liq xarajatlarning jami summasini ishlab chiqarilgan mahsulot soniga taqsimlasak, ishlab chiqarilgan bir

birlik mahsulotning tannarxini topamiz. Tannarx ko'rsatkichi korxona faoliyatida muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari xarajat kalkulyatsiya moddalari bo'yicha ishlab chiqarish turlari, xarajatlarning vujudga kelish joylari, mahsulot turlari bo'yicha buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Xarajatlarni hisobga olish hamda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishdan asosiy maqsad ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq xarajatlarni o'z vaqtida, to'laligicha va haqqoniy aniqlash, shu bilan birga ayrim mahsulotlarning haqiqiy tannarxini hisoblash hamda korxona resurslari va pul mablag'lari ishlatilishi ustidan nazoratni o'rnatishdan iborat. Demak, xarajatlarni hisobga olish ham moliyaviy hisobning, ham boshqaruv hisobining eng muhim qismlaridan biri ekan. Mana shu asosda xarajatlar hisobi oldidagi vazifalarni aniqlab olish lozimdir.

Moliyaviy hisobning asosiy vazifasi foydalanuvchilarni korxona faoliyatining moliyaviy natijalari, uning moliyaviy holati, xususan, mulkiy holati hamda to'lov qobiliyati haqidagi axborot bilan ta'minlashdir. Demak, bu jihatdan, xarajatlar hisobi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- korxona faoliyati bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z vaqtida to'laligicha hisobga olish;

- xarajatlar haqidagi ma'lumotlarni alohida hisobvaraqlarda hamda hisobot shakllarida to'g'ri aks ettirish va soliklarni hisoblash uchun yetarli darajadagi ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash.

Bu vazifalarni bajarish uchun xarajatlarni moliyaviy hisob tamoyillari, xususan, ikki yoklama yozuv asosida hisobga olish yetarlidir.

Boshqaruv hisobining eng asosiy xususiyati esa uning ma'lumotlari boshqaruv uchun foydaliligidir. Jumladan, boshqaruv hisobi xarajatlar haqida shunday batafsil ma'lumotlarni berishi kerakki, toki uning asosida eng to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilishning imkoniyati paydo bo'lsin. Bu sohadagi xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda xarajatlar hisobi haqidagi ma'lumotlarni korxona quyidagi holatda shakllantirishi kerak:

- xarajatlarni ularni paydo bo'lish joylari bo'yicha hisobga olish;

- xarajatlar hisobini javobgar xo'jalik markazlari bo'yicha tashkil qilish;
- xarajatlarni ularni paydo qilgan ob'ektlari yoki ularni tashuvchilari, ya'ni alohida mahsulot turlari bo'yicha jamlab berish.

Bu vazifalar boshqaruv hisobining asosiy vazifasini bajarishga imkon beradi. Masalan, xarajatlarni ularning paydo bo'lish joylari va javobgar xo'jalik markazlari bo'yicha hisobga olish eng muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon yaratadi. Demak, xarajatlarni hisobga olishning quyidagi vazifalarini ham sanab o'tishimiz kerak ekan:

- alohida ishlab chiqarish jarayonlari yoki bo'linmalari bo'yicha xarajatlar hisobini tashkil qilish va ular ustidan nazoratni ta'minlash;
- alohida mahsulot turlari bo'yicha asosiy ishlab chiqarish xarajatlari haqidagi ma'lumotni shakllantirib berish;
- korxonaning ishlab chiqarishdan tashqari barcha boshqaruv xarajatlarining tahliliy ma'lumotlarini yig'ib berish va ularning talqinini amalga oshirish.

Bu vazifalardan ko'rinib turibdiki, hisob va tahlil boshqaruv hisobining bir-biri bilan chambarchas bog'langan ikki tomoni ekan. Zero mahsulot bahosining eng quyi chegarasini aniqlash uchun ham tannarxni hisoblash talab etiladi.

Har bir korxona va tashkilotlarda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini to'g'ri kalkulyatsiya qilishning tashkil etish imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) avvaldan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan texnologiya rejasining mavjud bo'lishi;
- 2) ombor xo'jaligining to'g'ri tashkil qilinishi hamda ishlab chiqarish uchun zarur o'lchov asboblari va moslamalar bilan ta'minlangan bo'lishi;
- 3) ishlab chiqarish xarajatini analitik hisobvarag'i;
- 4) kalkulyatsiya ob'ektlari hamda kalkulyatsiya birligini aniqlash;
- 5) kalkulyatsiya moddalari, kompleks xarajatlar moddalari nomenklaturasini ishlab chiqish;
- 6) kompleks xarajat moddalarini kalkulyatsiya ob'ektlari o'rtasida taqsimlash usulini tanlash va hokazolar.

Bitiruv malakaviy ishining yozish davomida mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarni bu borada turlicha fikrlari mavjudligiga amin bo'ldik. Jumladan mamlakatimiz iqtisodchilaridan biri M. Umarova, O'. Eshonboyev va K. Axmadjonovlarning fikricha "Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog'liq haqiqiy xarajatlarni o'z vaqtida, to'liq hisobda aks ettirish;
2. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida material, pul va mehnat resurslaridan to'g'ri foydalanilishi ustidan nazorat olib borishni ta'minlash;
3. Hajmi, sifati va assortimenti bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishini nazorat qilish;
4. Mahsulot ayrim turlarining haqiqiy tannarxini hisoblash;
5. Tannarx bo'yicha reja topshirig'i bajarilishini nazorat qilish;
6. Ishlab chiqarishda foydalanilmagan rezervlarni aniqlash, brak hisobiga, nobudgarchiliklar va boshqa ishlab chiqarishdagi unumsiz xarajatlarning bo'lishiga qarshi kurash olib borish;
7. Ishlab chiqarishxo'jalik hisobi faoliyati natijalarini aniqlash"⁸.

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida mahsulot tannarxini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki raqobatchilik muhitida mahsulotga talab uning sifatigina emas, balki anchagina qismini tannarx tashkil etadigan uning narxi ham muhimdir.

Boshqaruv hisobini takomillashtirish va xarajatlarning to'g'ri va o'z vaqtida buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, shuningdek moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish ustidan qattiq nazoratni tashkil etish, ishlab chiqarishga taalluqli bo'lmagan xarajatlarni har tomonlama kamaytirish mahsulot tannarxini pasaytirishning eng muhim yo'llaridan biri hisoblanadi.

⁸ M. Umarova, O'. Eshonboyev, K. Axmadjonov "Buxgalteriya hisobi" T: 2004. 215-bet

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda xarajatlarning to'g'ri hisobga olinishini ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini aniq hisoblash maqsadida xarajatlarni mezonlari bo'yicha turkumlash zarurdir.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari to'g'risidagi axborotni shakllantirining yagona tamoyillarini ta'minlash uchun davlat tomonidan mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni belgilash, daromad va xarajatlarni guruhlariga ajratish, korxonalar faoliyati turi, mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunishdan qat'iy nazar ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishning umumiy tartibi belgilangan. Ana shu maqsadlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot(ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida" Nizom (keyingi o'zgartirishlar bilan ishlab chiqildi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri rejalashtirish va hisobini tashkil etish barcha xarajatlarni aniq va asoslangan tartibda turkumlarga ajratilishini talab qiladi. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibini aniqlashdan maqsad:

- buxgalteriya hisobi schetida jami xarajatlar to'g'risida to'liq va aniq ma'lumotlarga ega bo'lish, korxona faoliyatini rentabelligi va bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshligini aniqlash;

- mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini aniq hisob-kitobini qilish;

- mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlarni alohida tarkiblash va ularni moliyaviy natijaviylikka bog'lash;

- ishlab chiqarish xarajatlarini yuzaga chiqishi va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish va nazorat qilish;

- soliq to'lanadigan bazani aniq hisob-kitobini yuritish va bu orqali ishlab chiqarish xarajatlari hamda korxona sarflarini boshqarishni tashkil etishdan iboratdir.

“Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish haqida”gi Nizomga muvofiq ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishning umumiyliigi ta'minlangan. Buning yakunida mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini rejalashtirish, tahlil etish va nazorat qilishga imkoniyat tug'iladi.

Mazkur Nizom buxgalteriya hisobi maqsadlarida va soliqqa tortish maqsadlarida xarajatlarni hisoblash tartiblaridagi farqlanishlarini hisobga olib ishlab chiqilgan. Amaldagi Nizomga muvofiq xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning barcha xarajatlari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- 1) Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar;
 - A) Ishlab chiqarish tannarxiga qo'shilmaydigan xarajatlar, ammo, davr xarajatlariga qo'shiladigan xarajatlar (asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydani aniqlash uchun);
- 2) Korxonaning umumxo'jalik faoliyatidan ko'rgan foyda yoki zararini aniqlashda hisobga olinadigan moliyaviy faoliyat xarajatlari.
- 3) Favqulodda zarar (soliq to'lashga qadar aniqlanadigan foydani hisoblashda ishtirok etadigan).

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xarajatlarini yuqoridagi tarkib bo'yicha guruhlanganda, har bir guruh xarajatlari quyidagicha turkumlanadi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar quyidagicha turkumlanadi:

- a) Bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
- b) Bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;
- v) Ishlab chiqarishdagi ma'muriy xarajatlar.

2. Davr xarajatlari quyidagicha turkumlanadi:

- a) Sotish bo'yicha xarajatlar;
- b) Boshqaruv xarajatlari;
- v) Boshqa muomala xarajatlari va zararlar.

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar quyidagicha turkumlanadi:

- a) Foizlar bo'yicha sarflar;
- b) CHet el valyutasi kursi o'zgarishidan ko'rilgan zarar;
- v) Qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zarar;
- g) Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa sarf xarajatlar.

4. Favqulotda zararlar odatda turkumlanmaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarga ishlab chiqarish xarajatlari deb ataladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- Material xarajatlari;
- Mehnat haqi xarajatlari;
- Ishlab chiqarish bilan bog'liq ma'muriy xarajatlar.

Bevosita material xarajatlari mehnat haqi bilan birgalikda dastlabki xarajatlarni tashkil etadi.

Mehnat haqi va ishlab chiqarish xarakteridagi ma'muriy boshqaruv xarajatlari birgalikda konversiya xarajatlarini tashkil etadi.

Material xarajatlari konversiya xarajatlari bilan birgalikda to'liq ishlab chiqarish tannarxini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan barcha xarajatlarga noishlab chiqarish xarajatlari deb ataladi. Ular tarkibiga sotish bilan bog'liq xarajatlar, ilmiy tekshirish va tadqiqot xarajatlari, umumiy va ma'muriy boshqaruv xarajatlari, boshqaruv xarajatlari, olingan kredit uchun foiz to'lovlari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan, xarajatlar kiritiladi.

Mahsulot tannarxini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar quyidagilarni tashkil etadi.

1. Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat;
2. Taqqoslanadigan mahsulot tannarxi;
3. Mahsulot birligining tannarxi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatidagi xarajatlarni yuqoridagi ko'rinishda turkumlash bilan bir qatorda yana quyidagi xususiyatlari bo'yicha ham tasniflab chiqishimiz mumkin:

YUzaga chiqish shakliga ko'ra:

- asosiy ishlab chiqarish xarajatlari;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;
- tasodifiy, favquloddagi xarajatlar.

Mahsulot tannarxiga ko'shilishiga ko'ra:

- mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar.

YUzaga chiqish o'rni bo'yicha:

- bo'lim bo'yicha qilingan xarajatlar;
- tsex bo'yicha qilingan xarajatlar;
- uchastka bo'yicha qilingan xarajatlar va hakoza.

Sotish hajmiga hisobdan chiqarilishiga ko'ra:

- mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari;
- davr xarajatlari.

Davriga ko'ra:

- joriy davr xarajatlari;
- kelgusi davr xarajatlari.

Soliqqa tortiladigan foyda summasini aniqlashda hisobga olinishiga ko'ra:

- soliqqa tortiladigan bazaga qayta qo'shiladigan doimiy tafovutlar;
- soliqqa tortiladigan bazaga qo'shiladigan davri b ∞ yicha tafovutlar;
- soliqqa tortiladigan bazani aniqlashda hisobga olinmaydigan xarajatlar.

Mahsulot hajmining o'zgarishiga muvofiq:

- o'zgaruvchan xarajatlar;
- o'zgarmas xarajatlar.

Mahsulot tannarxiga qo'shilishiga qarab:

- to'g'ri xarajatlar (bevosita);
- egri xarajatlar (bilvosita).

Moliyaviy natijalarga daxlsizligi bo'yicha:

- mahsulot tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar;
- foyda hisobidan koplanadigan xarajatlar.

Bugungi kunda amalda bo'lgan Nizomga muvofiq mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradigan moddalar sirasiga o'zgarishlar kiritilgan.

Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi ishlab chiqarish yoki qayta ishlash jaraenida ishlatilgan tabiiy resurslar, xom-ashe, materiallar, ye qilg'i, energiya, asosiy vositalar (amortizatsiya), mehnat rusurslari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarning qiymat ko'rinishini ifoda etadi.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga ishlab chiqarishni tashkil qilish uslubi va texnologiyasi bilan belgilangan mahsulotni ishlab chiqarish (ish, xizmatlar bajarish) bilan bevosita bog'liq xarajatlar kiritiladi. Bularga: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, ishlab chiqarish yo'nalishidagi ustama xarajatlar hamda boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar kiradi.

Amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish xarajatlarini turkumlashtirishdan maqsad ularni hisobga olishda normativ hujjatlar talablariga asoslanishini ta'minlashdir.

2.2. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda tayyor mahsulot va uni hisobda baholash.

Xar bir xo'jali yurituvchi sub'ektning ishlab chiqarish jarayonining pirovard mahsuli bo'lib tayyor mahsulotlar hisoblanadi. Tayyor mahsulotlar bu mazkur korxonada qaytadan ishlashni talab qilmaydigan, standartlar va texnik shartlariga to'liq javob beradigan, texnik nazorat bo'limi (TNB) yoki maxsus komissiya tomonidan qabul qilingan va korxona omboriga topshirilgan yoki buyurtmachi tomonidan qabul qilingan buyum va mahsulotlardir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar bozor talabini o'rgangan holda tuzilgan shartnomalarga, assortiment, son va sifat reja topshiriqlariga binoan, doimo ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini ko'paytirish, ularning assortimentini kengaytirish va sifatini oshirishga e'tibor berib mahsulot ishlab chiqaradilar.

SHunday qilib, sotish jarayoni korxona xo'jalik mablag'larining doiraviy aylanishini yakunlaydi. Bu o'z navbatida korxonaga davlat byudjeti, ssudalar bo'yicha banklar, ishchi va xizmatchilar, mol yuboruvchilar oldidagi majburiyatlarni bajarish va ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash imkoniyatini beradi. Realizatsiya rejasini bajarmaslik aylanma mablag'lar aylanishini sekinlashiga, xaridorlar oldida shartnoma vazifalarini bajarmaganligi uchun jarima to'lashga, to'lovlarni kechikishiga, korxonaning moliyaviy holatini yomonlashishiga olib keladi.

Tayyor mahsulot deb—korxonadagi barcha ishlov operatsiyalaridan o'tib bo'lgan, tayyor holga keltirilgan belgilangan davlat standarti va texnikaviy shartlarning barcha talablariga javob beradigan hamda texnika nazorati bo'limi

tomonidan qabul qilingan yoki buyurtmachilarga topshirilgan mahsulotga aytiladi. Uning tarkibiga buyurtmachi korxonalar uchun bajarilgan ish, xizmatlar hamda ushbu korxonaga qarashli ishlab chiqarishdan tashqari xo'jaliklar uchun bajarilgan ish va xizmatlar ham kiradi. "Rash-Milk" mas'uliyati cheklangan jamiyatida ishlab chiqarilayogan mahsulotlarning asosiy turlarini qayta ishlangan sut maxsulotlari, ishlab chiqarilgan qadoklangan qatiq, ishlab chiqarilgan qaymoq tashkil qiladi.

Korxona mahsulotni iste'molchilar bilan tuzilgan shartnomalar reja topshiriqlari asosida bozor talablarini o'rganish kabi masalalarga katta e'tibor bergan holda ishlab chiqaradi.

Tayyor mahsulot natura va qiymat ko'rsatkichida hisobga olinadi. Natura ko'rsatkichlari mahsulotni ularning tabiiy xususiyatlariga qarab miqdori, soni va og'irligini tavsiflab beradi, bu ko'rsatkichlardan tayyor mahsulotni miqdoriy jihatdan hisobga olish uchun foydalaniladi. Tayyor mahsulot (ish, xizmat) ni natura ko'rsatkichlarining puldagi ifodasi uning qiymat ko'rsatkichini ifodalaydi.

Tayyor mahsulotni hisobga olish shu mahsulotning ishlab chiqarishdan olinishi, uning harakati, sotilishi va xaridorlar bilan olib boriladigan hisob-kitoblarni aks ettiradi.

Ombordagi mahsulot deganda, ishlab chiqarishning barcha ishlov operatsiyalaridan o'tib, texnika nazorati bo'limi tomonidan omborga benuqson deb qabul qilingan va asosan sotishga mo'ljallangan tovar mahsuloti tushuniladi.

Jo'natilgan mol (tovar)lar deb, xaridorlarga yoki iste'molchilarga jo'natilgan, lekin uning uchun xaridorlar tomonidan hali puli to'lanmagan yo'ldagi mahsulotga aytiladi.

Ma'sul saqlashga qabul qilingan mol (tovar)lar deb, xaridorlarga jo'natilgan tovar mahsulot har xil sabablarga ko'ra (sifatiga ko'ra xaridorning talabini qondirmaydigan, xaridorlarga adashib borib qolgan, ya'ni bir korxonaning o'rniga ikkinchi korxonaga shartnomadan tashqari borib qolgan tovarlar va shu kabilar) sotib olish uchun qabul qilinmay qolgan bo'lishi mumkin. Bunday mahsulotni tegishli korxonalar o'z javobgarligiga qabul qilib olib, darhol bu mollarni yuboruvchi korxonaga xabar qiladilar. SHuning uchun bunday mollar mas'ul saqlashga qabul qilingan mollar deb yuritiladi. Bunga qo'shimcha ravishda ko'rgazmada qo'yilgan

tayyor mahsulotni ham kiritish mumkin. Chunki ko'rgazmada qo'yilgan tayyor mahsulot ham korxonada ishlab chiqarilgan va sotilishi kerak bo'lgan mahsulotlardir.

Korxonani aylanma mablag'larini tarkibiy qismi hisoblangan tayyor mahsulotlar buxgalteriya hisobining 4 sonli Milliy standartiga asosan eng kam bahoda baholanishi kerak: tannarxda yoki sof sotish qiymatida.

Tayyor mahsulot aylanma mablag'lari tarkibiga kiradi va shuning uchun "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga binoan u balansda ishlab chiqarish jarayonida asosiy vositalar, xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, quvvat, mehnat resurslari va uni ishlab chiqarishga doir boshqa xarajatlardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlarni uz ichiga oladigan mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha aks ettirilishi kerak.

Tayyor mahsulotlar harakatining kundalik hisobi ishlab chiqarish reja tannarxida, yoki hisob bahosi deb nomlangan chakana jo'natish baholarida yuritiladi.

Korxonalarda mahsulot birligining reja tannarxi ishlab chiqiladi. U oy oxirida tayyor mahsulotlarning guruhlari bo'yicha farq summasi va foizni hisoblash yo'li bilan haqiqiy tannarxga yetkazib qo'yiladi.

Omborga qabul qilingan va xaridor korxonalarga jo'natilgan mahsulot buxgalteriya hisobida haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha aks ettiriladi. Biroq tsexlardan mahsulot omborga qabul qilinganda uning haqiqiy tannarxi ma'lum bo'lmagani uchun mahsulot harakatini hisobda qabul qilingan reja tannarxi yoki ulgurji bahoda shartnoma narxda hisobga olinadi, ya'ni baholanadi. Hisobot oyi davomida mahsulot reja tannarxi bilan haqiqiy tannarxi yoki haqiqiy tannarx bilan ulgurji baho o'rtasidagi farq alohida hisobga olinadi. Farq tejalganligi yoki korxona tomonidan ortiqcha xarajatga yul qo'yilganligini ko'rsatadi va shuning uchun ish natijalarini ta'riflaydi.

Farq summasi va foizi mahsulotning oy boshiga qoldig'i va uning oy davomidagi kirimiga qarab hisoblab chiqiladi. Farqi tejalganligini yoki korxona tomonidan ortiqcha xarajatga yo'l qo'yilganligini ko'rsatadi va shuning uchun

ishlab chiqarish jaraenidagi uning ish natijalarini ta'riflaydi. Tayyor mahsulotlar qaysi hisobvaraqa hisobga olingan bo'lsa, farqlar ham ushbu hisobvaraqlarda aks ettiriladi. Farqning foizi va jo'natilgan mahsulotning reja tannarxi sotilgan va ombordagi oy oxiriga qolgan mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlash imkonini beradi. Misol:

1. Tayyor mahsulotning oy boshiga bo'lgan xaqiqiy tannarxi va oy davomida ishlab chiqarishdan kelib tushganining shu mahsulotlar reja tannarxiga bo'lgan nisbati 95 foiz ($288800 \times 100 : 30400$) ya'ni 5 foizga tejalgan.

2. Hisoblab topilgan foiz bo'yicha jo'natilgan mahsulotning haqiqiy tannarxi 256500 so'mni tashkil qiladi ($270000 \times 95 : 100$).

3. Oy oxiriga qolgan mahsulotning haqiqiy tannarxi 256500 ming. so'mni ayirish bilan topiladi. Bizning misolimizda u 32300 ming. so'mga teng. Oy ohiriga qolgan mahsulotning reja tannarxi ham shu yo'l bilan topiladi ($304000 - 270000 = 3400$).

Jo'natilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini shu mahsulotning reja tannarxi bilan haqiqiy tannarxi summolari orasidagi farqi nisbatidan topilgan foiz bo'yicha ham aniqlash mumkin: $5\% \quad 15200 \times 100 = : 304000$. SHu foizga tegishli ravishda jo'natilgan tayyor mahsulotning haqiqiy tannarxi 265500 ming. so'mni tashkil qiladi ($270000 \times 5 : 100$).

Hisobda tayyor mahsulotlarni boshqa baholari (shartnoma, ulgurji yoki chakana baho) qo'llanilsa ham og'ishish summasi va foizi shu tartibda hisoblanadi.

Joriy hisobda tayyor mahsulotni baholash "Tovar-moddiy boyliklar" deb nomanlan 4-sonli BHMSga binoan FIFO yoki o'rtacha hisoblash (AVEKO) usullaridan biriga ko'ra amalga oshirilishi mumkin.

2.3. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotishning sintetik hamda analitik hisobi.

Korxonalarning buxgalteriya hisobini tashkil qilish tizimida tayyor mahsulotlar ularni yuklash va sotish hisobi alohida o'rin tutib, uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, ularning zahiralar holati va omborlarda saqlanishi, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar ustidan uzluksiz nazorat qilish;
- yuklangan va jo'natilgan mahsulot (ish, xizmat) larni o'z vaqtida va to'g'ri hujjatlashtirish, xaridorlar bilan olib boriladigan hisob kitoblarni aniq tashkil etish;
- sotilgan mahsulotlarning hajmi va assortimenti bo'yicha mol jo'natish shartnoma rejasini bajarilishi ustidan nazorat qilish;
- sotilgan mahsulot uchun olingan summani mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan haqiqiy xarajatlarni, foyda summasini o'z vaqtida va aniq hisoblab chiqish.

Bu vazifalarni bajarilishi korxonaning bir tekisda ishlashi, sotish va ombor xo'jaligini to'g'ri tashkil qilish, xo'jalik muomalalarini o'z vaqtida va to'g'ri hujjatlashtirishga bog'liq.

Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari deb, maxsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlarga yoki davr xarajatlariga aytiladi. Ularga xom ashyo, material, yoqilg'i, ammortizatsiya ajratmasi, ishchi va xizmatchilar ish xaqi xamda maxsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar kiradi.

YUqorida ishlab chiqarish xarajatlariga berilgan tushunchalardan ma'lumki, tannarxga korxonalarning xamma xarajatlari qo'shilmaydi, ba'zi xarajatlari boshqa

manbalar hisobidan qoplanadi, masalan, davr xarajatlari foyda hisobidan qoplanadi. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlariga ajratiladi:

- 1) ishlab chiqarish moddiy xarajatlari;
- 2) ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- 3) ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urta ajratmalari;
- 4) asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- 5) ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa ustama xarajatlar.

Maxsulot ishlab chiqarish xarajatlari xarajat kalkulyatsiya moddalari bo'yicha ishlab chiqarish turlari xarajatning vujudga kelish joylari, maxsulot turlari bo'yicha buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Xarajatlarni ana shunday umumlashtirish va guruhlash uchun bir necha sintetik buxgalteriya hisobvaraqlari qo'llaniladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ishlab chiqarish jarayonining murakkabligi, korxonaning xo'jalik faoliyatida uning ahamiyati, xarajatlarning har xilligi butun bir guruh ishlab chiqarish xarajatlari hisobvaraqlaridan foydalanishni talab qiladi. Bular asosan quyidagilardir: 2010 «Asosiy ishlab chiqarish», 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish», 2320 «Boshqa ishlab chiqarishlar», 2510 «Umumishlab chiqarish», 2610 «Ishlab chiqarishdagi brak», 3110 «Oldindan to'langan ijara haqi», 3120 «Oldindan to'langan xizmat haqi», 3190 «Boshqa bo'nak xarajatlar».

Ishlab chiqarish xarajatlarini elementlari va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha hisob yuritishni ta'minlash uchun asosiy ishlab chiqarishning barcha xarajatlari 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyotida tayyorlanayotgan mahsulot turlari bo'yicha guruhlanadi. Bu tayinlanishi bo'yicha kalkulyatsion hisbvaraqlar, iqtisodiy mazmun bo'yicha xo'jalik jarayonlarini ta'riflaydi, balansga nisbatan - aktivdir.

Yordamchi ishlab chiqarishlar mahsuloti yoki xizmatlari tannarxini aniqlash uchun tegishli xarajatlar 2310 yoki 2320-hisobvaraqlarda guruhlanadi. Bu

schyotlar tayinlanishi, iqtisodiy mazmuni va balansga nisbat jihatidan 2010 hisobvaraqlarga o'xshagan. To'lash vaqtidan qat'iy nazar - oldindan to'lanadimi (ijara haqi, abonent haqi va boshqalar.) yoki keyinchalik to'lanadimi (ortikcha qilingan hisobdor summalarining to'lanishi va boshqalar), korxona xarajatlari qilingan paytda mahsulot tannarxiga o'tkazilishi kerak. Kaysi kalkulyatsiya davriga o'tkazish imkoniyati bo'lmagan xarajatlar, shuningdek mavsumiy tarmoqlarning ayrim xarajatlari mahsulot, ishlar, xizmatlar tannarxiga smeta xarajatlariga binoan o'tkaziladi.

2010 «Asosiy ishlab chiqarish» hisobvaraqlarining debetida mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'g'ri xarajatlar, shuningdek yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, brakdan ko'rilgan yo'qotishlar va asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar aks ettiriladi.

2010 «Asosiy ishlab chiqarish» hisobvarag'i debetlanganda quyidagi schyotlar kreditlanishi mumkin:

0211 - 0299 - hisobvaraqlar - mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashgan asosiy vositalarning eskirish summasiga;

0510 - 0590 - hisobvaraqlari - nomoddiy aktivlarning eskirish summasiga;

1010 - 1090 - hisobvaraqlari-sarflangan material qiymatliklari summasiga;

1610 - hisobvarag'i - materiallar qiymatidagi og'ishishlar hisobdan chiqarilganda (storno yoki qo'shimcha yozuv);

2110 - hisobvarag'i - o'zida ishlab chiqariladigan yarim tayyor mahsulotlar sarflansa;

2310 - hisobvarag'i - yordamchi tsexlar xarajatlari hisobdan chiqarilganda;

2510 - hisobvaragi - umumishlab chiqarish xarajatlari hisobdan chiqarilganda;

2610 - hisobvarag'i - brakdan ko'rilgan zararlar hisobdan chiqarilganda;

3110-3190 - hisobvaraqlari - kelgusi davr xarajatlari hisobdan chiqarilganda;

6710 - hisobvarag'i - ishchilarga hisoblangan ish haqi summasiga;

6520 - hisobvarag'i - ijtimoiy sug'urta va ta'minotga hisoblangan summaga;

5910 - hisobvarag'i - material qiymatliklarning kamomadi (jumladan tabiiy kamayish) asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga o'tkazilsa.

2010 «Asosiy ishlab chiqarish» hisobvarag'ining kreditida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot bajarilgan ish va xizmatlarning haqiqiy (hisobot davri ichida - reja) tannarxi summasi aks ettiriladi. Bu vaqtda 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» hisobvarag'i kreditlanib quyidagi schyotlar debetlanadi:

2810 «Tayyor mahsulot» - omborga topshirilgan tayyor mahsulotning haqiqiy (reja) tannarxi summasiga;

9110 «Sotilgan mahsulotlar tannarxi», 9130 «Sotilgan ishlar va xizmatlar tannarxi» hisobvaraqlari - sotilgan mahsulot, ishlar va xizmatlar tannarxi summasiga;

1010 - 1050 - hisobvaraqlari - ishlab chiqarishdan qaytarib omborga topshirilgan materiallar qiymatiga;

1110 «O'stirishdagi hayvonlar» hisobvarag'i - hayvonlardan olingan naslni kiringa olinishi, o'stirishdagi va bo'rdoqiga boqilayotgan hayvonlarni o'stirish xarajatlarini hisobdan chiqarilishi;

2110 «O'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar» hisobvarag'i o'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarni omborga qabul qilinishi;

2610 «Ishlab chiqarishdagi brak» hisobvarag' - tuzatib bo'lmaydigan brakni hisobdan chiqarilishi;

9439 «Boshqa operatsion xarajatlar» hisobvarag'i - bekor qilingan buyurtmalar xarajatlarini hisobdan chiqarilishi.

2010 «Asosiy ishlab chiqarish» hisobvarag'ida oy oxiriga qolgan qoldiq tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini ko'rsatadi.

Umumishlab chiqarish xarajatlari hisobvarag'i ishlab chiqarishni boshqarish va unga xizmat ko'rsatish xarajatlarini alohida hisobga oladi. Ular mahsulot tannarxiga alohida kalkulyatsiya moddasi bo'lib qo'shiladi. Umumishlab chiqarish xarajatlari nomenklaturasi bo'yicha xarajatlar smetasi tuziladi. Buxgalteriya hisobi yordamida bu smetalarning bajarilishi nazorat qilinadi. Bunday xarajatlarni hisobga olish uchun 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» yig'ib-taqsimlovchi

hisobvaraqlardan foydalaniladi. Bu schyotda, xususan, quyidagi xarajatlar aks ettirilishi mumkin: mashina va asbob-uskunalarini asrash; ishlab chiqarish yo'nalishidagi asosiy vositalarni to'la tiklashiga ajratilgan amortizatsiya; ta'mirlash xarajatlari; ishlab chiqarish mulklarini sug'urta xarajatlari; ishlab chiqarish xonalarini isitish, yoritish va asrash xarajatlari; ishlab chiqarish xonalari, mashina va asbob - uskunalarini va ishlab chiqarishda foydalaniladigan boshqa ijaraga olingan vositalar uchun to'langan ijara haqi; ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatishda band bo'lgan xodimlarning mehnat haqi; tayinlanishi shunga o'xshagan boshqa xarajatlar.

Korxonalarda umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobi xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga binoan xarajat elementlari bo'yicha hisobvaraqlar ochib yuritilishi mumkin. 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» hisobvarag'i debetlanganda quyidagi hisobvaraqlar kreditlanadi: 0220 - 0260, 0290, 0290, 0299- schyotlar - asosiy vositalar bo'yicha esqirish hisoblanganda; 1010 - 1050, 1090 - hisobvaraqlari - materiallar va yoqilg'ilarning sarflanishi; 2310 - 2320- hisobvaraqlari yordamchi ishlab chiqarishlar xizmatlarini hisobdan chiqarilishi; 6010- schyoti - mol yuboruvchilarning ko'rsatgan uchun schyotlarini aktseptlanishi; 6710- hisobvarag'i - hisoblangan ish haqi summasiga; 6520- hisobvarag'i - ijtimoiy sug'urtaga hisoblangan summaga; 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» hisobvarag'iining debetida yig'ilgan xarajatlar summasini hisobot davri oxirida alohida hisob schyotlari orasida taqsimlash mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash usullari orqali tartibga solinadi. Bu vaqtda 2510«Umumishlab chiqarish xarajatlari» hisobvarag'i kreditlanib, quyidagi hisobvaraqlar debetlanadi:

2010, 2110- hisobvarag'lari - asosiy ishlab chiqarishda ishlab chiqarilgan mahsulot va yarim tayyor mahsulotlarga umumishlab chiqarish xarajatlarining bir qismi o'tkazilganda; 2310- hisobvarag' - ishlar va xizmatlar tannarxiga umumishlab chiqarish xarajatlarining bir qismi o'tkazilganda;

2610- hisobvarag'i - umumishlab chiqarish xarajatlarining bir qismi brak mahsulotini tuzatishga o'tkazilganda; 3110-3190-schyotlari-umumishlab chiqarish xarajatlarining bir qismi kelgusi davr xarajatlariga o'tkazilganda.

Korxonalarda sotish jarayoni korxona xo'jalik mablag'larining doiraviy aylanishini yakunlaydi. Bu o'z navbatida korxonaga davlat byudjeti, ssudalar bo'yicha banklar, ishchi va xizmatchilar, mol yuboruvchilar oldidagi majburiyatlarni bajarish va ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash imkoniyatini beradi. Realizatsiya rejasini bajarmaslik aylanma mablag'lar aylanishini sekinlashiga, xaridorlar oldida shartnoma vazifalarini bajarmaganligi uchun jarima to'lashga, to'lovlarni kechikishiga, korxonaning moliyaviy holatini yomonlashishiga olib keladi.

Korxona realizatsiya hajmi bilan bir qatorda foyda summasini ham rejalashtiradi. Chunki, mahsulotning sotish narxi belgilanganda uning tarkibiga ma'lum summada yoki foizda foyda summasi ham kiritiladi. Agar shartnoma bo'yicha sotishga tegishli mahsulotlar miqdorini shartnoma bahosiga ko'paytirsan reja bo'yicha ularni sotish qiymati kelib chiqadi, foyda foiziga qarab esa reja foyda summasi hisoblab chiqiladi. Bu byudjetga foydadan bo'nak ajratmasini to'lash uchun baza bo'lib hisoblanadi.

Tayyor mahsulotlar harakatining sintetik hisobi 2810 «Ombordagi tayyor mahsulot» hisobvarag'ida yuritilib, u mavjud tayyor mahsulotlar va ularning harakati to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan. Bu hisobvarag'ning debetida omborga tushgan mahsulotlar, kreditida esa ombordan jo'natilgan mahsulotlar aks ettiriladi.

Agar mahsulotlar harakatining joriy hisobi reja tannarxida yuritilsa, 2810 hisobvarag'ning debetida ikkita ko'rsatkich reja tannarxi va reja tannarxidan og'ishish summasi hisobga olinadi. Agar joriy hisobda korxonaning ulgurji baholari qo'llanilsa, 2810 hisobvarag'ning debetida quyidagi ko'rsatkichlar bo'ladi: ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatining korxona ulgurji bahosi va ulgurji baho qiymati bilan haqiqiy tannarxi orasidagi farqi.

Korxonalarda mahsulot, ish va xizmatlarni sotish bilan bog'liq muomalalarni hisobi 9010 «Mahsulot sotishdan olingan daromadlar», 9020 «Tovarlar sotishdan olingan daromadlar» va 9030 «Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar» hisobvarag'larida yuritiladi. Ushbu hisobvaraqlar tranzit bo'lib passiv hisobvaraqlarga mansubdir. Bu hisobvaraqlar tayyor mahsulotlar, tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarni sotish jarayoni to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan. Bu hisobvaraqlarning kredit qoldiqlari moliyaviy natijani aniqlash maqsadida har oyning oxirida 9900 «YAkuniy moliyaviy natija» hisobvarag'iga o'tkazilib boriladi.

YUklab jo'natilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar bular mahsulot va xizmatlar uchun to'lov hujjatlari, mol oboruvchilar tomonidan bankka topshirilgan, lekin xaridorlar tomonidan to'lanmagan summa. Oy oxirida yuklab jo'natilgan, lekin to'lov hujjatlari bankka tonshirilmagan mahsulotlar balansda ombordagi tayyor mahsulotlar bilan birga aks ettiriladi va korxonaning aylanma mablag'lari tarkibida ko'rsatiladi.

Mahsulot uchun pul xaridorlardan hisob - kitob hisobvaraqga kelib tushgan sanada sotildi deb hisoblanadi (kassa usuli) yoki yuklab jo'natilgan, topshirilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar, xizmatlar uchun hujjatlar bankka topshirilgan sanada sotildi deb hisoblanadi (hisoblash usuli). Ikkala usulda ham sotilgan mahsulot (ish, xizmatlar) 9010 «Mahsulot sotishdan olingan daromadlar», 9020 «Tovarlar sotishdan olingan daromadlar», 9030 «Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar» schyotlarida hisobga olinadi. Sotilgan tovarlarni qaytarilishi va xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar 9040 «Sotilgan tovarlarning qaytarilishi» va 9050 «Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar» hisobvaraqlarda hisobga olinadi. Bu hisobvaraqlarning hususiyatlari shundan iboratki, ularning debeti va kreditida bir hajmda (miqdorda) gi sotilgan mahsulot (ish, xizmat) lar bir xil summada aks ettiriladi.

9010, 9020 va 9030 hisobvaraqlarning kreditida 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» hisobvarag'i bilan korrespondentlashgan holda mahsulot (ish va xizmat) lar sotishdan tushadigan sof tushum aks ettiriladi.

Bu hisobvaraqlarda xaridorlarga jo'natilgan mahsulot (ish va xizmat) lar bo'yicha Hisoblangan aktsiz solig'i va QQS summalari aks ettirilmaydi, quyidagi provodka bilan 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» hisobvarag'ida aks ettiriladi:

Debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» jo'natilgan mahsulotlar uchun, aktsiz solig'i va QQS summasi qo'shilgan holda, xaridorlardan olinadigan jami summaga.

Kredit 6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik» hisoblangan aktsiz solig'i va QQS summasiga.

Kredit 9010 «Mahsulot sotishdan olingan daromad» mahsulot sotishdan tushadigan sof tushumga.

Hisoblash usulida, ya'ni mahsulotni topshirish (yuklab jo'natish), ish va xizmatlarni bajarish fakti sotildi deb hisoblanganda 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» hisobvarag'i qo'llaniladi. Bu hisobvaraq aktiv bo'lib, uning saldosi buyurtmachiga topshirilgan mahsulotlar, ishlar, xizmatlarning to'lanmagan sotish qiymatini ko'rsatadi; debet oboroti hisobot oyida topshirilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlarning sotish qiymatini, kredit oboroti esa hisobot oyida xaridorlar tomonidan to'langan summani ko'rsatadi.

Asosiy (operatsion) faoliyatdai olingan daromadlar hisobi bo'yicha hisobvaraqlar korrespondentsiyasi (9000) mahsulot, ish va xizmatlar naqd pulga sotilganda, qisqa va uzoq muddatli investitsiya tarzida boshqa tashkilotlarga o'tkazib berilgan mahsulotlar summasiga, o'z kapital qurilishi uchun ko'rsatilgan xizmatlar summasiga, ichki xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlar summasiga, mehnat haqi yuzasidan xodimlarga berilgan mahsulot va xizmatlar summasiga, mahsulot bilan to'langan dividendlar summasiga. Hisobot davri oxirida 9040 va 9050 hisbvaraqlarning yopilishi, yuklab jo'natilgan va sotilgan mahsulotlarning schyotlari bo'yicha sintetik hisobi 11-jurnal orderida yuritiladi. Bu jurnal order 2810, 9410, 9010, 9020, 9030, 9210, 9220, 4010 hisobvaraqlarning kredit oborotlarini va 9010, 9020, 9030

hisobvaraqlarning analitik ma'lumotlarini yozish uchun tayinlangan. 11 jurnalorder 15 va 16 vedomostlarning analitik ma'lumotlariga asosan to'ldiriladi.

9010, 9020 va 9030 hisobvaraqlarning kreditida aks ettirilgan summa oy oxirida 9900 «YAkuniy moliyaviy natija» hisobvarag'i bilan korrespondentlangan holda yopiladi.

Korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotishni sintetik hisobini yuritish bilan bir qatorda ushbu jaraenlarning analitik hisobni to'g'ri tashkil etish va o'z vaqtida yuritish ham muhim ahamiyatga ega. Analitik hisob ma'lumotlari korxona xo'jalik faoliyatini tahlil va nazorat qilish, rejalashtirish, boshqarish va rahbarlik qilish uchun zarur bo'lgan axborotlar bazasi bo'lib hisoblanadi.

2010 «Asosiy ishlab chiqarish» va 2310 «YOrdamchi ishlab chiqarish» schyotlari bo'yicha analitik hisob har bir buyurtma, ishlar turi, mahsulot turi, kalkulyatsiya moddalari va ishlar bajarilgan joy (tsex) ni ko'rsatib alohida yuritiladi. Buning uchun analitik hisob kartochkasi (vedomosti) ishlab chiqilgan.

2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schyoti bo'yicha analitik hisob 12 qaydnomada yuritiladi. Bu qaydnoma har bir tsexga har oyda 2010, 2310, 2610 hisobvaraqlarning debet sintetik ko'rsatkichlari bo'yicha va 2510 hisobvaraqlarning kreditidan korrespondentlanuvchi hisobvaraqlar bo'yicha ochiladi. 12 qaydnoma shaxmat shaklida bo'lib tegishli grafalariga hisobvaraqlar bo'yicha xo'jalik muomalalarining summasi yoziladi.

1 modda 2510 hisobvaraqlarning debeti faqat 0200 hisobvaraqlarning krediti bilan korrespondentlanadi; 2 modda 10, 6520, 6710, 8910, 2310 va boshqa hisobvaraqlarning krediti bilan; 5 modda — faqat 1310 «ATB ning eskirishi» hisobvarag'i bilan korrespondentlanadi. Qaydnomaning bunday tuzilishi xarajatlar tarkibini tahlil qilish, buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritilishini nazorat qilish imkoniyatini beradi. Quyidagi ko'rsatkichlarning mavjudligi 12 qaydnomaning afzalligini ko'rsatadi: 2510 hisobvarag'lari bo'yicha «Oy bo'yicha jami», «Smeta bo'yicha oylik», «Yil boshidan haqiqiysi», «Smeta bo'yicha chorak (yillik)». Bu ko'rsatkichlarni taqqoslash mahsulot tannarxini pasaytirish uchun rezervlarni qidirib topish, ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'ymaslik imkoniyatini

yaratadi. «Yil boshidan haqiqiysi» ko'rsatkichining ma'lumoti ishlab chiqarishni boshqarish va unga xizmat ko'rsatishni tahlil qilish uchun foydalaniladi.

Ishlab chiqarish schyotlarining krediti bo'yicha pirovard oborotlar summasi har oyda 10/1 jurnal orderidan hisoblab chiqariladi.

Tayyor mahsulotlar xarakatini pul ko'rsatkichidagi hisobi 16 "Tayyor buyumlar xarakatining puldagi ifodasi" qaydnomasida yuritiladi. 16 qaydnomaning 1 bo'limidan 2810 hisobvaraqlarning to'liq ma'lumotlari ta'rifini ikki bahoda, ya'ni haqiqiy va hisob bahoda olamiz.

YUklab jo'natilgan mahsulotlar xarakatining hisobi 16 qaydnomaning

2 bo'limida yuritiladi. Ushbu bo'limda jo'natilgan, sotilgan mahsulotlar, material qiymatliklar, xizmatlar va xaridorlar bilan hisoblashishilarning analitik va sintetik hisobi birlashgan. Jo'natilgan va sotilgan mahsulotlar analitik hisobi ularning natural ko'rinishidagi turlari bo'yicha yoki to'lov xujjatlari bo'yicha ikki bahoda haqiqiy tannarxda yoki sotish narxida tashkil etiladi. Qaydnomaning ikkinchi bo'limini to'ldirish uchun oldingi oyning kaydnomasi, to'lov hujjatlari, hisobot oyida jo'natilgan mahsulotlarga buyruq, nakladnoylar, shuningdek korxonaning hisob-kitob hisobvarag'idan olingan bankning ko'chirmalari asos bo'lib hisoblanadi.

Qaydnomaning 3 bo'limida to'langan, hisobdan chiqarilgan, to'langan, hisobdan chiqarilgan, to'lanmagan va hisobdan chiqarilmagan summalar to'g'risidagi yig'ma ma'lumotlar aks ettiriladi.

3-BOB. “RASH-MILK” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATIDA MAXSULOT ISHLAB CHIQARISH VA SOTISH HISOBINI ALOHIDA JIXATLARI.

3.1. “Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mahsulotlarni biznes reja asosida ishlab chiqarishning xususiyatlari.

Hozirgi kunda “Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyati o’zining ishlab chiqarish faoliyatini hamda kelgusida amalga oshirishi mumkin bo’lgan taktik va strategik rejalarini o’zining biznes rejasida aks ettiradi.

Biznes reja – bu xo’jalik yurituvchi sub’ektning rivojlanish strategiyasini belgilab beradigan asosiy hujjatlardan biridir. SHu bilan birga u:

- ◆ korxona rahbarlariga strategiya holatini aniq belgilashga yordam berib samarali boshqarishga olib keladi;
- ◆ bozor iqtisodiyeti sharoitida biznesni qanday rejalashtirish va amalga oshirishni o’rgatadi;
- ◆ xaqiqiy faoliyatni rejalashtirilgan ko’rsatkichlar bilan taqqoslashga ham o’z vaqtida ularga o’zgartirishlar kiritishga yordam beradi;
- ◆ korxona faoliyati bo’yicha kerakli axborotlarni banklarga investorlarga va kreditorlarga taklif etadi.

Biznes reja ko'pgina korxonalar, firma va tashkilotlarda bozorni urgangan xolda tuziladi, ya'ni iste'molchilarning talabi va taklifi urganiladi va maxsulot ishlab chiqish boshlanadi.

Biznes rejani menejer, tadbirkor, firmalar guruhi va konsalting tashkiloti tayyorlashi mumkin.

Yirik firma rivojlantirishning strategiyasini ishlab chiqish uchun kengaytirilgan biznes reja tuziladi. Bunday firmalarning hammasi ishlab chiqariladigan o'z maxsotlari yoki xizmatlarini zamonaviylashtirishni doimo ko'zda tutadilar. Doimo tavakkal qilib maxsulot chiqaradigan firmalar avvalo yangi turdagi maxsulotlarni o'zlashtirishda muntazam ish olib boriladi va xokazo.

Biznes rejani ishlab chiqadigan mutaxassislar guruxining asosini iqtisodchilar, statistlar tashkil etadi. Biznes reja vaziyatini firma ichida ham, undan tashqarida ham kelajakda qanday bo'lishi ifoda etiladi. Biznes reja aksionerlar egalik qiladigan sharoitda va ma'lum darajada, shirkatlar tuzishda qanday yo'l tutishini bilib olish uchun firma xabarlariga zarur buladi. Ayni shu biznes reja yordamida korxona xabarlariga foydaning qanday qismini jamgarmani ko'paytirib borish uchun qoldirish, qanday qismini dividendlari shaklida aksionerlar urtasida taqsimlanish kerakligi xususida qaror qabul qiladi. Biznes rejalaridan firmalarning tashkiliy ishlab chiqarish strukturasini takomillashtirishda ham foydalaniladi. Biznes reja doimiy hujjat bo'lib, muntazam ravishda yangilanib boriladi, unga ham firmaning ichida, ham umuman iqtisodiyotdagi sharoitlarga qarab ro'y bergan o'zgarishlar kiritiladi.

Biznes reja korxonaning muayyan bozordagi faoliyatining anik yo'nalishini o'rganish maqsadida o'tkaziladigan tadqiqotlar va tashkiliy ishning natijasi bo'lgan munosabati bilan u quyidagilarga asoslanadi:

- korxonaning zaif va kuchli tomonlarini aniqlab, o'ziga xos xususiyatlarini va o'ziga o'xshash boshqa korxonalardan farqlarini aniqlab olish maqsadida xar tomonlama o'tkaziladigan ishlab chiqarish-xo'jalik va tijorat tahliliga;

- aniq vazifalarni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan moliyaviy, texnik iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarga.

Biznes-reja korxonaning rivojlanish strategiyasini belgilab beradigan asosiy hujjatlardan biridir. SHu bilan birga u korxona taraqqiyotining umumiy kontseptsiyasiga asoslanadi, strategiyaning iqtisodiy va moliyaviy jihatlarini bir muncha batafsil bayon etadi, anik chora tadbirlarni texnik iqtisodiy jihatdan asoslab beradi.

Biznes reja investitsion dasturning odatda bir necha yil ichida amalga oshirilishi kerak bulgan bir qismini o'z ichiga oladi. Biznes rejani tuzish quyidagi bosqichlardan foydalaniladi:

- 1 - boskich. Rivojlanish kontseptsiyasini ishlab chiqish.
- 2 -boskich. Rivojlanishning investitsion dasturi.
- 3 - boskich. O'rtacha muddatli davrga biznes reja tuzish.
- 4- boskichi. Biznes rejani amalga oshirishga dir chora -tadbirlar.

Biznes-reja bir qancha vazifalarni xal qilishga imkon beradi, lekin bularning asosiylari quyidagilardir:

- firma taraqqiyoti yo'nalishlarining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslash;
- tanlab olingan strategiyani amalga oshirish uchun kerakli mablag'lar manbayini, ya'ni moliyaviy resurslarni jamlash usullarini belgilash;
- mazkur rejani amalga oshira oladigan xodimlarni tanlab olish.

Biznes-reja korxonaning ish jaraenini tasvirlab, korxona rahbarlarining o'z maqsadlariga qanday erishishlarini, birinchi navbatda ishning daromad keltirishini qay tariqa oshirish mumkinligini ko'rsatib beradi. YAxshi ishlab chiqilgan biznes-reja korxonaning o'sib borishiga, bozorda yangi mavqelarni qo'lga kiritishga, o'z taraqqiyotining istiqbollarni belgilab olishga, yangi tovarlar ishlab chiqarish va yangi xizmat turlarini yaratishga mo'ljallarni amalga oshirishning maqsadga muvofiq usullarini tanlab olishga yordam beradi.

Biznes-reja korxonaning ichki hujjati bo'libgina qolmay, balki undan investorlar va kreditorlarni taklif qilishda ham foydalanish mumkin. Investorlar tavakkal qilib sarmoya berishdan avval loyihaning sinchiklab ishlab chiqilganiga ishonch hosil qilishlari va uning samarali ekanligidan xabardor bo'lishlari kerak.

Ular sarmoya berish imkoniyatlarini ko'rib chiqishdan oldin biznes-rejani sinchiklab o'rganib chiqishadi, so'ngra loyihani ishlab chiqqanlar bilan uchrashadilar.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki xozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar, tomonidan biznes-reja hamma uchun o'ta zarurdir. Uning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi:

- ***birinchidan***, iqtisodiyotimiz bozor munosabatlariga o'tdi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bozor sharoitida vujudga keladigan muammolarni tasavvur eta olmaydilar. Ularga javob beradigan darajada tayyor emaslar;
- ***ikkinchidan***, butunlay o'zgarib borayotgan xo'jalik faoliyati sohasi katta tajribaga ega bo'lgan rahbarlarning ish ham yuritishda o'zgartirish kiritishlarini taqozo etadi va ayniqsa, hozirgi kunda bir narsa – raqobatga tayyor bo'lib turishga chaqiradi. Bu sohada ikkinchi darajali ishlar bo'lmaydi;
- ***uchinchidan***, xorijdan investitsiya olish zarur, buning uchun buyurtmalarimizni isbotlab berish qobiliyatiga ega bo'lishimiz, investitsiya mablag'larining har bir jihatini xorijiy tadbirkorlardan qolishmaydigan darajada ishlab chiqishimizni investorlarga ko'rsata olishimiz kerak.

Tuziladigan biznes-rejaning hajmi korxona bajaradigan ish faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Biznes-rejani ishlab chiqishda tashqi maslahatchilardan ham foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Biznes rejani xar bir bulimini kiskacha aloxida yoritish maksadga muvofikdir. Bulimlar mazmunida takrorlanishlar bo'lishi mumkin, chunki tugallovchi matn biznes reja va bulimlar matniga bog'liq.

Bo'limning bosh vazifasi shundan iboratki, menejerlarning biznes rejani uta muxim xolatlarini va ularni qisqa, aniq tasvirlash qobiliyatini ko'rsata olishdir. Maksadni o'ta keng va katta xajmda yozish ham kutilgan natija bermaydi. O'ta qisqa yoritish ayrim xolatlarni tushirib koldirishga va investorlarda korxona

faoliyati haqida noto'g'ri tushuncha yuzaga kelishiga olib keladi. Kirish raxbarlarning biznes rejaning asosiy faoliyatlariga bulgan aniq munosabatlarini ifodalaydi.

Mahsulot (ish, xizmat)lar hajmini o'rganishda solishtirma, ulgurji baholarda hamda joriy yilning amaldagi baholarida aniqlangan ma'lumotlar tahlil qilinadi.(jadval 3.1.1.). Dinamikasini aniqlash uchun hisobot davrida ishlab chiqarilgan haqiqiy mahsulot hajmi o'tgan yillardagisi bilan taqqoslanib ko'rsatkichlarni o'zgarishi mutloq va nisbiy (foiz)larda aniqlanishi lozim. Bunday tahlil qilishda taqqoslanuvchi ko'rsatkichlar bir xil baholarda hisoblangan, ya'ni taqqoslanuvchi talabga keltirilgani maqsadga muvofiqdir. Sababi, aniqlangan o'zgarish va farqlarda baho omilining ta'siri bo'lmasdan faqat miqdoriy o'sish yoki kamayishlar aniq holati ko'ringani tahlilning ta'sirchanligini orttiradi. Mahsulot (ish, xizmat)lar hajmini o'tgan yillarga nisbatan o'sish sur'atlari bir xil solishtirma ulgurji bahoda aniqlanadi. Amaldagi ulgurji bahoda ifodalangan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmini solishtirma bahodagisi bilan taqqoslash orqali bahoning o'zgarishini mahsulot miqdoriga ta'siri aniqlanadi.

Jadval 3.1.1

“Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasi.

Ko'rsatkichlar	O'tgan Yil	2015 yil		Farqi (+,-)			
		Biznes reja bo'yicha	Haqiqatda	Rejadan		O'tgan yildan	
				Mutloq, ming so'm	Nisbiy, %	Mutloq, ming so'm	Nisbiy, %
1	2	3	4	5	6	7	8

Mahsulot hajmi (ish, xizmat) ulgurji bahoda, ming so'mda:							
• Solishtirma ulgurji bahoda	12113183	14667105	17592281	2925176	19.9	5479098	45.2
• Amaldagi ulgurji bahoda	12361682	16401472	18666267	2264795	13.8	6304585	51.0

“Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyati mahsulot ishlab chiqarish rejasini solishtirma va amaldagi ulgurji baholar bo’yicha ortig’i bilan bajargan. Ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki aktsiyadorlik jamiyatida hisobot yili mahsulot ishlab chiqarish hajmi solishtirma ulgurji baho bo’yicha o’tgan yilga nisbatan 5479098 ming so’mga, biznes rejaga nisbatan esa 2925176 ming so’mga ko’paygan. Amaldagi ulgurji baholar bo’yicha esa mahsulot ishlab chiqarish hajmi o’tgan yilga nisbatan 6304585 ming so’mga yoki 51.0 foizga, biznes rejaga nisbatan esa 2264795 ming so’mga yoki 13.8 foizga o’sgan. Bunday natijalar shundan dalolat beradiki, mahsulot hajmining solishtirma bahosi bilan amaldagi bahosi o’rtasidagi farq baho o’zgarishining mahsulot hajmiga ta’sirini aks ettiradi. Bundan ko’rinadiki, korxonada joriy yilda tovarlar bahosida o’sish kuzatilgan. Bu esa iqtisodiyetda ma’lum darajada inflyatsiyaning mavjudligidan dalolatdir.

Mahsulot ishlab chiqarish biznes rejasini bajarilishi va uning dinamikasi miqdoriy (dona, kg, tonna) o’lchamlarda aniqlanib tahlil etiladi. Bunday tahlil miqdor o’lchamidagi ma’lumotlarni o’rgansada, aniq holatni va mavjud imkoniyatni batafsilroq aks ettiradi. Sababi, korxona qancha turdagi va miqdordagi mahsulotlar ishlab chiqargan bo’lsa, faqat haqiqatda erishilgan natijalargina o’rganiladi. Tahlil davomida mahsulot ishlab chiqarish hajmini o’rtacha yillik o’sish darajasini aniqlash lozim.

“Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyati 2016 yilda Andijon viloyati aholisini sut mahsulotlari bilan ta’minlashni yanada yaxshilash, asosiy xomashyo hisoblangan sutni ishlab chiqarish va ularni qayta ishlash xajmlarini ko’paytirish bo’yicha biznes reja tuzib ushbu reja asosida o’z faoliyatini davom ettirmoqda.

3.2. “Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mahsulotlar sotish xajmini oshirish imkoniyatlari.

Korxonalar erkin faoliyat yurituvchi sub’ektlar sifatida oldi-sotdi munosabatlarini ham mustaqil belgilaydilar. Mahsulot, ish va xizmatlarni oldi-sotdi jarayonlari bozor munosabatlarining negizida turadi. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotish mulkiy munosabatlardan kelib chiqqan holda o’zaro shartnomaviy kelishuvlarga tayanadi. Respublikamizdagi soliq qonunchiligiga asosan mahsulot ortib jo’natilgan va hisob hujjatlari qarshi tomonga (xaridor va buyurtmachilarga) taqdim etilgan bo’lsa, mahsulot sotilgan deb hisoblanadi. Mahsulotlarga egalik huquqi ular ortib jo’natilgan paytdanoq korxonadan chetlanadi va qarshi tomonga o’tadi. Ular bo’yicha hisob-kitoblar tomonlarning o’zaro kelishuvida hal etiladi.

Mahsulotlarni sotilgan deb hisoblashning odatda ikki sharti, ya’ni ular ortib jo’natilgan va korxona hisob raqamiga puli kelib tushishini xarakterlovchi “kassali usul” hamda ortib jo’natilgan va hisob hujjatlari taqdim etilgan paytdan sotilgan

hisoblanuvchi “hisobga olish usuli” xarakterlanadi. Mulkga egalikning yangi huquqiy jihatlarida asosan ikkinchi usul tarkiblanadi. SHuningdek, butun butun hisob-kitoblar tizimi ham ushbu qonuniyat asosida tuziladi. Oldi-sotdi munosabatlarida yagona belgi shuki, ortib jo’natilgan yoki sotilgan mahsulotlar bo’yicha mablag’larni undirib olish bevosita mulk egasining muammosidir.


SHartnomaviy munosabatlarda uning sub’ektlari o’zaro kelishuvining huquqiy jihatlarini ifodalanadi, mahsulotlarni sotuvchi va sotib oluvchilar, ularning majburiyatlari, hisob-kitoblarning shakli, davri va shartlari, ularning buzilishida qo’llaniladigan choralar, ularning tartibga solinishi aks ettiriladi. Mahsulotlarni sotish ulgurji va chakana narxlarda amalga oshiriladi. Korxona tomonidan qo’llaniladigan narxlarni quyidagicha tasvirlash mumkin.

Tovarlarning ishlab chiqarish tannarxi	Korxona foydasi	Sotish jaraenida qo’llaniladigan egri soliqlar	Savdo ustamasi
Korxonaning ulgurji sotish bahosi			
Korxonaning chakana sotish bahosi			

Mahsulot sotish hajmini oshirish va mahsulot, ish va xizmatlarni sotish rejasining bajarilishi hamda dinamikasi, uning o’zgarishiga ta’sir etuvchi omillar o’rganiladi. Mahsulot sotish hajmini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni quyidagi chizma va jadval misolida ko’rishimiz mumkin:

CHizma 3.2.1.

Mahsulotlarni sotish shakllari



III


III

IV

IV

CHizma 3.2.2.

Sotish shakllari bo'yicha narxlarning shakllanishi



Mahsulot sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun tovar balansini tuzamiz. Tovar balansini ko'rsatkichlari tayyor mahsulot xarakati nomli ma'lumotnomadan olinadi. Bu hisobot shaklida tayyor mahsulotning yil boshiga, yil oxiriga bo'lgan qoldig'i, ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti hamda sotilgan mahsulot ulgurji bahoda va ishlab chiqarish tannarxida ifodalangan. Tovar balansini quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$Yb + T = ST + Yo$$

Bunda:

Yb – tayyor mahsulotning yil boshiga qoldig'i

T – ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti

St – sotilgan mahsulot hajmi

Yo – tayyor mahsulotning yil oxiridagi qoldig'i.

Jadval 3.2.3

“Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mahsulot sotish hajmi dinamikasi (ming so'mda).

Ko'rsatkichlar	SHartli belgi	2015 yil		Farqi (-,+)	Sotish hajmiga ta'siri
		Biznes rejada	Haqi-qatda		
1	2	3	4	5	6
1. Tayyor mahsulot yil boshiga qoldig'i	Yb	367847	563974	+196127	+196127
2. Ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti	T	14667105	17592281	+2925176	+2925176
jami (1 satr+2 satr)	X	15034952	18156255	+3121303	+3121303
3. Sotilgan mahsulot	St	14917058	18116731	+3199673	X
4. Tayyor mahsulotning yil oxiriga qoldig'i	Yo	117894	39524	-78370	+78370

Jami (3 satr+4 satr)	X	15034952	18156255	+3121303	+78370
-----------------------------	----------	----------	----------	----------	--------

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki mahsulot sotish hajmi 18116731 ming so'mni tashkil etib rejaga nisbatan 3199673 ming so'mga ortgan. Sotish xajmiga quyidagi omillar ta'sir etgan.

$$St=Yb+T-Yo$$

1. Tayyor mahsulotning yil boshiga bo'lgan qoldig'ini o'zgarishi.
2. Ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti.
3. Tayyor mahsulotning yil oxiriga bo'lgan qoldig'ini o'zgarishi.

Sotish hajmiga t'sir etuvchi omillardan ikkitasi, ya'ni tayyor mahsulotning yil boshiga qoldig'i (Yb) va ishlab chiqarilgan mahsulotning (T) rejaga nisbatan o'zgarishi bevosita va bilvosita ta'sir etadi. Bu ko'rsatkichlarni (Yb,T) ortishi sotish hajmini ham ortishiga, rejaga nisbatan kamayishiga olib keladi.

Yil oxiridagi (Yo) tayyor mahsulot sotish hajmiga teskari ta'sir etadi, ortishi sotish hajmini kamayishiga, kamayishi sotish hajmini ortishiga olib keladi.

1. Yil boshidagi tayyor mahsulot qoldig'ining rejaga nisbatan +196127 ming so'mga ortishi tufayli sotilgan mahsulot shu summaga ko'paydi. Bu omilning hissasi 6,12 % ($196127 \times 100 : 3199673$) ni tashkil etadi.

2. Ishlab chiqarilgan tovar mahsulotini rejasi 119,9 % ga bajarilgan, ya'ni rejani 19,1 % ga ortig'i bilan bajarilishi tufayli mahsulot hajmi 2925176 ming so'mga ortgan. SHu summaga sotilgan mahsulot hajmi ham ko'paygan.

3. Yil oxiridagi tayyor mahsulot qoldig'i rejadagi 117894 ming so'mdan haqiqatda 39524 ming so'mga qadar, ya'ni 78370 ming so'mgacha kamaygan. Bu foiz hisobida 2,44 % ($78370 \times 100 : 3199673$) ni tashkil etadi.

Yil oxiridagi qoldiqning kamayishi tufayli realizatsiya hajmi 78370 ming so'mga ko'paygan.

Jadval 3.2.4

“Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mahsulot sotish hajmi o’zgarishining umumlashtirilishi (ming so’m).

Ko'rsatkichlar	Summa, ming so'mda	Rejaga nisbatan % hisobida
1	2	3
1. Tayyor mahsulotning yil boshiga qoldig'ini ortishi hisobiga	+196127	+6.12
2. Tovar mahsuloti rejasini ortig'i bilan bajarilishi hisobiga	+2925176	+19,1
3. Tayyor mahsulotning yil oxiriga qoldig'ini kamayishi hisobiga	+78370	+2.44
Jami	+3199673	+27,66

YUqorida qayd etilgan omillardan tashqari sotish rejasining bajarilishiga mahsulot sifatini rejaga nisbatan o'zgarishi, assortimentni belgilangan rejaga nisbatan o'zgarishi, ishlab chiqarish maromiyligini buzilishi, bozordagi talab va taklifning o'zgarishi, o'rindosh tovarlarning bozordagi hajmi va ularning bahosini o'zgarishi, mahsulotning qadoqlanishi hamda tashqi ko'rinishi va boshqalar ta'sir etadi.

3.3. “Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mahsulotlarni sotish bo’yicha shartnoma majburiyatlarini bajarish yo’llari.

Mamlakatimiz mustaqil respublika maqomini qo’lga kiritganidan so’ng iqtisodiyotning bozor mexanizmi orqali rivojlanish yo’lini tutdi. Istiqlol islohotlari tufayli boshqaruvning ma’muriy-buyruqbozlik usullari o’rnini egallagan bozor iqtisodiyeti sharoitida shartnoma barcha mulk shaklidagi korxona, muassasi va tashkilotlar, shuningdek, tadbirkorlar o’rtasida iqtisodiy munosabatlarni o’rnatuvchi asosiy huquqiy hujjatga aylandi. YAqin o’tmishda rejali iqtisodiyet davrida ham shartnomalar tizimidan foydalanilgan. Ammo, yakka mulkchilik, ya’ni davlat mulkchiligining tanho huquqi xukmronlik qilgan zamonda shartnomalar reja va topshiriqlarni bajarish uchun qo’llaniladigan bir vosita hisoblangan xolos. Qolaversa, ilgarilari shartnomaga uni tuzgan tomonlarning istak va manfaatlarini ifoda etuvchi to’la huquqli yuridik hujjat deb ham qaralmasdi. Ularni qo’llanilishi cheklangan bo’lib, hattoki, fuqarolarning o’zaro bitim tuzishi qonun yo’li bilan jazolanadigan ayb-chayqovchilik sifatida, koralanar edi. SHu ma’noda, shartnomaning huquiy maqomini tamomila o’zgartirish va umuman, shartnoma tuzish madaniyatini yuksaltirish borasida mamlakatimizda jiddiy ishlar

amalg oshirilaetgani e'tiborga loyiqdir. Endilikda, shartnoma rejali ishlab chiqarish va taqsimlash omillariga asoslanmaydi. Bilsak, bozor qonuniyatlari talabiga binoan, shartnomaviy munosabatlar tovar-pul, ya'ni teng to'lovlar tarzida amalga oshirilib, shartnoma ularga huquqiy shakl o'rnida xizmat qila boshladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, xo'jalik ishlarini yuritish qonunlari majmuasi, mulkchilik, tadbirkorlik, korxonalar to'g'risidagi qonunlar, boshqa me'riy hujjatlar shartnoma munosabatlarni tartibga solib turuvchi huquqiy manbalar hisoblanadi.

SHartnoma ijrosi bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biridir. SHartnoma bajarilmasligi korxonaga iqtisodiy zarar keltiribgina qolmay, uning istiqbolini xavf ostiga qo'yadi, har ikki tomondagi korxonalar ishchilarining maosh ololmasligiga sabab bo'ladi.

Xo'jalik shartnomalarining malakali va puxta tuzilishi tomonlar majburiyatlarni noto'g'ri talqin etishlariga, sheriklardan biri shartnomaga noinsof munosabatda bo'lganida yoki uni beixtiyer buzib qo'yganda bu holat boshqa tomonga zarar keltirishiga imkon bermaydi. Korxona rahbarlari va tadbirkorlarning barchasida ham o'z faoliyatining moliyaviy natijalari bilan bog'liq ma'suliyat hissi shakllangan, deb bo'lmaydi. Huquqiy idoralari o'tkazgan tekshirishlarda ayrim korxona va tashkilotlar rahbarlari tomonidan shartnomalarni tuzish va ijro etishda qonunchilikka rioya etmaslik holatlari ko'plab aniqlangan. Aksariyat rahbarlarda hozirgacha mulkdorlik tuyg'usi shakllanib ulgurmagan. Ba'zi rahbarlarda o'z xo'jaligining moddiy-moliyaviy natijalariga e'tiborsizlik kayfiyati qonun va sudlarga nisbatan nopisandlik bilan qarash holatida namoyon bo'lmoqda.

Sotish rejasining bajarilishi umumiy hajmda bajarilishidan so'ng shartnoma majburiyatlarini hisobga olgan holda sotish rejasini bajarilishini aniqlash lozim. Bu ko'rsatkich orqali korxonaning shartnomaviy majburiyatlarga bo'lgan munosabatlariga va faoliyatiga baho beriladi.

Jadval 3.3.1.

**“Rash-milk” mas’uliyati cheklangan jamiyati bo’yicha shartnoma
majburiyatlarining bajarilishi (ming so’mda).**

Ko’rsatkichlar	Biznes reja bo’yicha	Haqiqatda
1	2	3
1. Sotilgan mahsulot hajmi, ming so’mda	14917058	18116731
2. SHartnomaviy majburiyatlarga nisbatan yetkazib berilmagan mahsulot hajmi, ming so’mda	X	103672
3. SHartnomaviy majburiyatlarni hisobga olgan holda mahsulot sotish hajmi, ming so’mda	-	14813386
4. SHartnomaviy majburiyatlarni hisobga olgan holdagi mahsulot sotish rejasining bajarilishi, %	X	95,62

Majburiyatni hisobga olgan holda sotish rejasi 99,3 % (14813386x100:14917058) ga bajarilgan. SHartnomadagi 103672 ming so’mlik mahsulot iste’molchilarga shartnomada kelishilgan muddatlarda yetkazib berilmagan. Bu esa mahsulot yetkazib beruvchi korxonaga bo’lgan ishonchning pasayishiga, ushbu korxonaga nisbatan turli iqtisodiy jarimalar qo’llanilishiga sabab bo’ladi. Natijada korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holati yemonlashuviga va raqobat bozorida o’z mavqeini yo’qotishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan har bir korxona, firma va tashkilotlar hozirgi sharoitda bozorni o'rgangan holda “qanday mahsulot ishlab chiqarish kerak, kim uchun ishlab chiqarish va qancha miqdorida ishlab chiqarish zarur” tamoyiliga asoslangan holda ish yuritishi lozim. Buning uchun ular bozorni chuqur o'rganishlari, marketing sohasida yuqori malakali mutahassislarga ega bo'lishlari kerak. Ishlab chiqarishni tashkil etishda bozor to'g'risida qancha ko'p ma'lumotga ega bo'lishlik, raqobatchilar, ist'emoilchilarning xarid qobiliyati, o'xshash tovarlar hajmining o'zgarib turishi hamda shu kabi boshqa muammolarni batafsil axborotlar to'plash va ularni atroflicha tahlil etib turish muvaffaqiyatlar garovi, foyda ko'rib ishlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Demak, mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmi ist'emoilchilarning talab va istaklariga bog'liqdir.

Korxonada talabni e'tiborga olgan holda ishlab chiqarilgan va o'z vaqtida sotilgan mahsulot korxonanining ijobiy moliyaviy natijalarga erishishi, dividend to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishi, mulk va mablag'larning uzluksiz hamda samarali aylanishi kabi ko'pgina moliyaviy ahvol munosabatlarini yaxshilash

imkoniyatini tug'diradi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq muomalalarni amalga oshirish uchun albatta dastlabki ma'lumotlar zarurdir, ularni esa buxgalteriya hisobi yordamida olish mumkin. Buxgalteriya hisobi orqali yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilib korxonani mahsulot ishlab chiqarish va sotish faoliyati yuzasidan xulosalar qilish mumkin.

“Rash-Milk” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobi” mavzusida bitiruv malakaviy ishini bajarishda biz quyidagi xulosalarga keldik:

Tayyor mahsulot buxgalteriya hisobida mahsulotning amaldagi ishlab chiqarish tannarxi, reja ishlab chiqarish tannarxi, sotishdagi ulgurji narhlar, erkin sotish narhlari va tariflari, erkin bozor narhlarida baxolanishi mumkin. SHuni xam aytib utish kerakki, tayyor mahsulot korxonaning aylanma mablag'lari tarkibiga kiradi va shu boisdan amaldagi buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risidagi milliy standartlarga (BXMS) binoan, xakikiy ishlab chiqarish tannarxi buyicha balansda aks ettirilishi kerak.

Buxgalteriya hisobining vazifalaridan biri daromad keltirmaydigan xarajatlar, yaroqsiz mahsulotlar, bekor turib qolishlar, kamomad va moddiy boyliklarning buzilishidan kuriladigan yuqotishlarni o'z vaqtida topish va aniqlashdan iboratdir. Bunday ma'lumotlar sub'ekt mablag'larining samarasiz sarflanishi sabablari va aybdorlarini bilib olishga imkon beradi.

Erkin bozor munosabatlari sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'zining ishlab chiqarish faoliyatini hamda kelgusida amalga oshirishi mumkin bo'lgan taktik va strategik rejalarini biznes rejasida aks ettiradi.

Mahsulot ishlab chiqarish biznes rejasini bajarilishi va uning dinamikasi miqdoriy (dona, kg, tonna) o'lchamlarda aniqlanib tahlil etiladi. Bunday tahlil miqdor o'lchamidagi ma'lumotlarni o'rgansada, aniq holatni va mavjud imkoniyatni batafsilroq aks ettiradi. Sababi, korxona qancha turdagi va miqdordagi mahsulotlar ishlab chiqargan bo'lsa, faqat haqiqatda erishilgan natijalargina o'rganiladi. Tahlil davomida mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'rtacha yillik o'sish darajasini aniqlash lozim.

Mahsulot ishlab chiqarish dasturini bajarilishi korxonadagi barcha texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir etadi. O'z navbatida mahsulot ishlab chiqarish dasturini bajarilmasligiga ham turli omillar ta'sir etadi. Bu omillar ta'sirini o'rganish esa korxona uchun qo'shimcha imkoniyatlarni aniqlashga va ulardan ishlab chiqarishni samaradorligini oshirishda qo'shimcha imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlaydi.

Mahsulot ishlab chiqirish hajmi – korxona faoliyatining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uning asosida ish kuchiga bo'lgan talab va ishlab chiqarish quvvatlari, ish haqi fondi, aylanma mablag'lar va hokazolar aniqlanadi. Korxona bo'yicha barcha turdagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi qiymat o'lchovida umumlashadi.

Korxonalarda mahsulotlarni to'liq turlarda ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega, chunki shartnoma asosida rejalashtirilgan mahsulotlarni to'liq turlarda ishlab chiqarmasa, u holda aholining ayrim tovarlarga bo'lgan ehtiyoji to'liq qondirilmaydi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib “Rash-Milk” mas'uliyati cheklangan jamiyatida mahsulot ishlab chiqarish va sotish hisobini yanada takomillashtirish uchun quyidagilarni taklif qilamiz:

1. Korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarni o'z vaqtida sotish hisobiga debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishda chegirmalar berish, kafolatli hizmatni joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi deb o'ylaymiz.
2. Sotilgan tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarini har bir schot-faktura bo'yicha aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun sotilgan mahsulotlarning tannarxini topish maqsadida hisobot davri oxirida tayyor mahsulotlar holati va harakati bo'yicha balans tuziladi. Bu balans tovar balansi deb nomlanib, hozirgi kunda juda ko'p korxonalarda tuzilmayapti. Shuning uchun amaliyotni o'rganish natijasida “Rash-Milk” MCHJda ham ushbu balansni tuzishni tavsiya qilamiz.

3. Mahsulot sotish hajmini oshirish uchun korxonada marketing izlanishlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bu ishni korxonada direktor o'rinbosari raxbarligida hisobchilar va sotish bo'limi boshliqlar ibajarishlari mumkin

4. Korxonani faoliyatida mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan muomalalarni xolatini bilish va o'z vaqtida choralar ko'rish maqsadida korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotish tahlilining xech bo'lmasa bir oyda bir marotaba o'tkazib turish kerak deb o'ylaymiz.

O'ylaymizki, keltirilgan takliflar amaliyotga tadbiq etilsa mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini va umuman korxona faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston. 1992 yil 8 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.-T.: O'zbekiston. 2007yil.
3. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni.2016 . 30.03
4. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni (yangi tahriri) 2000 yil 26 may.
5. "Mahsulot (ishlar, hizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan moliyaviy natijalar aniqlanadi:
6. "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi Schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma" 21-BHMS ga asosan asosiy vositalar schyotlarda olib boriladi:

7. 19-BHMS, “Inventarizatsiyani tashkil etish va o’tkazish”ga asosan asosiy vositalarni inventarizatsiyasi o’tkaziladi:
8. O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 14-avgust kuni 474-son bilan ro’yxatga olingan 1-BXMS “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”ga asosan asosiy vositalarni eskirish turi hisoblanishi ko’rsatib o’tiladi:
9. Adliya vazirligida 2004 yil 20 yanvarda 1299-son bilan ro’yxatga olingan 5-son BHMS “Asosiy vositalar”ga asosan asosiy vositalar hisobi yuritiladi:
10. Adliya vazirligida 2009 yil 24 aprelda 1946-son bilan ro’yxatga olingan 6-son BHMS “Ijara hisobi”gna asosan asosiy vositalarni ijara hisobi yuritiladi:
11. Adliya vazirligida 2003 yil 20 martda 1226-son bilan ro’yxatga olingan 15-son BHMS “Buxgalteriya balansi”ga asosan asosiy vositalar hisobi yuritiladi:
12. Adliya vazirligida 2004 yil 6 aprelda 1334-son bilan ro’yxatga olingan “Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi tartibi to’g’risida”gi nizamga asosan asosiy vositalarni inventarizatsiya hisobi yuritiladi:
13. Adliya vazirligida 2004 yil 29 avgustda 1401-son bilan ro’yxatga olingan “Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to’g’risida” nizamga asosan asosiy vositalarni balansdan chiqarish hisobi yuritiladi:
14. Adliya vazirligida 2006 yil 14 yanvarda 1539-son bilan ro’yxatga olingan “Nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarish tartibi to’g’risida”gi nizamga asosan nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarish tartibi yuritiladi:
15. Adliya vazirligida 2004 yil 14 yanvarda 1297-son bilan ro’yxatga olingan “Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to’g’risida”gi nizamga asosan asosiy vositalarni hujjatlarini aylanishi yuritiladi:
16. Adliya vazirligida 2003 yil 27 mayda 1245-son bilan ro’yxatga olingan “Tovar-moddiy boyliklarni olishga ishonchnomalar berish va ularni ishonchnomalar bo’yicha berish tartibi to’g’risida”gi nizamga asosan asosiy vositalarni olib kelish uchun ishonchnoma berish tartibi yuritiladi:

17. Adliya vazirligida 2009 yil 1 iyunda 1961-son bilan ro'yxatga olingan "Buxgalteriya hisobida ijara operatsiyalarini aks ettirish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan asosiy vositalarni ijara hisobi yuritiladi.
18. Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy hisob.-T.: Moliya. 2002.-672 b.
19. Vaxidov S.V. va boshq. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari.-T.: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2004.-237 b.
20. Do'smurotov R.D. Audit asoslari.-T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2003.-612 s.
21. Ibragimov A.K. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobi, auditori va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini aniqlashni takomillashtirish.: Iqt. fan. dokt. dis....avtoref.-T.: O'zR BMA. 2002.
22. Karimov A.A. va boshq. Buxgalteriya hisobi.-T.: SHarq, 2004.-592 b.
23. Kondrakov N.P. Buxgalterskiy uchets.-M.: Infra-M.2002.-640 s.
24. Karimov A.A. Boshqaruv hisobini tashkil etish uslublari. //“O'zbekis- tonda buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida yangi schetlar rejasini amaliyotga joriy etish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari.-Toshkent, TMI. 2002. 128-129 b.b.
25. Mamatov Z.T. Audit: muammolar va rivojlantirish istiqbollari.-T.: TMI. 2004.-348 b.
26. Maxmudov A.N. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditori.-T.: TMI. 2002.-118 b.
27. Musaev H.N. Audit.-T.: Moliya. 2003.-220 b.
28. Xoshimov B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi..-T.: “Yangi ar avlodi”2004y
29. Raz'yasneniya mejdunarodnyx standartov finansovoy otchetnosti. KMFSO.- Bishkek. 2001.-435 s.
30. Sanaev N.S., Narziyev R. Audit.-T.: o'qituvchi. 2001.-196 b.
31. Cotivoldiyev A.S., Itkin YU.M. Zamonaviy buxgalteriya hisobi.- T.: O'zbekiston BAMA nashr. I-II-tom. 2002.-122 b.
32. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot.-T.: Moliya. 2003. 247
33. Xasanov B.A. Ichki auditorni avtomatlashtirish asoslari.-T.: Fan. 2003.-

34. Hamdamov B.K. Audit iqtisodi.-T.: TMI. 2005.-251 b.
35. EshboyevU., Axmadjonov K.Buxgalteriya hisobi “UAJBNT”markazi 2004
36. Soliq solish va buxgalteriya hisobi jurnali 2006-2008 yillardagi nashr ma'lumotlari.
37. “Rash-milk” mas'uliyati cheklangan jamiyatining 2014-2015 yillik hisobot ma'lumotlari.

Internet sayti ma'lumotlari

<http://www.referat.uz>.

<http://www.gao.gov/>

<http://www.taxsites.com>

<http://www.accounting.com/>

<http://www.fasb.org>

<http://www.accounting.rutgars.edu>

<http://www.buhgalteria.com.ua>

<http://www.lc.ru>

<http://www.gaap.ru>

<http://www.glavbukh.ru>